“Kompyuter grafikasi” fanini o'rganish davomida axborot (taqdimot, multimedia texnologiyalari) va ta'limning zamonaviy texnologiyalarini (rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, fanni to'liq o'zlashtirishga yo'naltirilgan texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari) hamda interfaol metodlar (“Aqliy hujum”, “BBB”, “Venn diagrammasi”, “T-chizma”, “Insert”, “Tsxema”, “FSMU”, “Klaster” metodi, “Bumerang”, “Skorobey”, “Tarozi”, “Yelpig'ich” texnologiyasi) qo'llaniladi. Bundan tashqari darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ma'lumotnomalar, pedagogik entsiklopediyalar va lug'atlar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallaridan foydalaniladi.

2.7. Didaktik vositalar.

- 1. Jihozlar va uskunalar, moslamalar:** LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).
- 2. Video – audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
- 3. Kompyuter va mul'timedialli vositalar:** komp'yuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

2.8. Baholash mezonlari

Talabaning “Kompyuter grafikasi” fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda quyidagi mezonlarga asoslaniladi:

a) **86-100 ball** uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

kompyuter grafikasi haqida tushuncha. Kompyuter grafikasi turlari: vektorli, rastrli, fraktal, CD-grafika. Grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi. Grafik axborotlarni kiritishning maxsus vositalari. Grafik axborotlarni kiritish, taxrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari: CorelDrawe, PhotoShop, 3D-max, va boshqalar. Tasvirlarga ishlov berish. Internetda dizayn: vazifalar, yondashuvlar, yechimlar. HTTP, FTP protokollarida ishlash. Web - saytlarni hosil qiluvchi dasturlar va dasturlash tillari: Macromedia Dreamweaver, HomeSite, Microsoft FrontPage, HTML, PHP, Java Script, XML. Tayyor shablonlardan foydalanib Web – saytlarni yaratish. Saytda ma'lumotlarni joylashtirish arxitekturasini: ma'lumotlarni mavzularga bo'lib joylashtirish. Ma'lumotlarni tushunarli, aniq aks ettirish va doimiy yangilanishiga erishish. Grafik ma'lumotlarni aks ettirish. Adobe Photoshop grafik muharriri yordamida Web- sahifada grafik ma'lumotlarni aks ettirish. Ranglar palitrasi. Animasiya va bannerlarni aks ettirish va ularga qo'yiladigan talablar. Flash dasturida interfaol animasiyalar yaratish, Ma'lumotlarni aks ettirishda ularning o'lchamini optimallashtirish. Dinamik saytlar hosil qilish. WEB serverlar. Ma'lumotlar bazasi. Saytni testlash va baholash haqidagi nazariy bilimlarga ega bo'lishi, ushbu nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi, kasbiy sohalarida fanning amaliy imkoniyatlaridan foydalana olishi, Mustaqil ta'limlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

b) **71-85 ball** uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

kompyuter grafikasi haqida tushuncha. Kompyuter grafikasi turlari: vektorli, rastrli, fraktal, CD-grafika. Grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi. Grafik axborotlarni kiritishning maxsus vositalari. Grafik axborotlarni kiritish, taxrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari: CorelDrawe, PhotoShop, 3D-max, va boshqalar. Tasvirlarga ishlov berish. Internetda dizayn: vazifalar, yondashuvlar, yechimlar. HTTP, FTP protokollarida ishlash. Web - saytlarni hosil qiluvchi dasturlar va dasturlash tillari: Macromedia Dreamweaver, HomeSite, Microsoft FrontPage, HTML, PHP, Java Script, XML. Web – saytlarni yaratish. Saytda ma'lumotlarni joylashtirish arxitekturasini: ma'lumotlarni mavzularga bo'lib joylashtirish. Ma'lumotlarni tushunarli, aniq aks ettirish va doimiy yangilanishiga erishish. Grafik ma'lumotlarni aks ettirish. Adobe Photoshop grafik muharriri yordamida Web- sahifada grafik ma'lumotlarni aks ettirish. Ranglar palitrasi. Animasiya va bannerlarni aks ettirish va ularga qo'yiladigan talablar. Flash dasturida interfaol animasiyalar yaratish, Ma'lumotlarni aks ettirishda ularning o'lchamini optimallashtirish. Dinamik saytlar hosil qilish. WEB serverlar. Ma'lumotlar bazasi. Saytni testlash va baholash haqidagi nazariy bilimlarga ega bo'lishi; ushbu nazariy

bilimlarni amalda qo'llay olishi; kasbiy sohalarida fanning amaliy imkoniyatlaridan foydalana olishi;

v) **55-70 ball** uchun talabaniy bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

kompyuter grafikasi haqida tushuncha. Kompyuter grafikasi turlari: vektorli, rastrli, fraktal, CD-grafika. Grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi. Grafik axborotlarni kiritishning maxsus vositalari. Grafik axborotlarni kiritish, taxrirlash va chiqarishning dasturiy vositalari. Tasvirlarga ishlov berish. Internetda dizayn: vazifalar, yondashuvlar, yechimlar. Web - saytlarni hosil qiluvchi dasturlar va dasturlash tillari. Tayyor shablonlardan foydalanib Web – saytlarni yaratish. Flash dasturida interfaol animasiyalar yaratish, Ma'lumotlarni aks ettirishda ularning o'lchamini optimallashtirish. Dinamik saytlar hosil qilish haqidagi qisman tassavurga ega bo'lishi; amaliyotda ayrim dasturlarni ko'llay olishi,

g) fanning nazariy qismini tushunmaydigan, amaliy qo'llash imkoniyatlari juda past, dasturlarni mutaql ravishda ishlata olmaydigan talabalarga **0-54** va undan past **ball** qo'yiladi.

100 ballik sistema asosida quyidagi jadvalga ko'ra reyting nazorati amalga oshiriladi.

Maksimal ball – 100 ball	Saralash ball – 55 ball
JN maks. ball – 35	86-100 ball – «5» baho
ON maks. ball – 35	71-85 ball - «4» baho
YN maks. ball – 30	55-70 ball - «3» baho
	0-54 ball - «2» baho

Nazorat turi	Nazorat shakllari	Har bir nazorat uchun belgilangan maksimal ball	Nazorat soni	Nazorat shakllari bo'yicha belgilangan maksimal ball
Joriy nazorat	1. Amaliy ish	5	2	10
	2. Lab.ishi	5	2	10
	3. Lab.ishi	5	2	10
	4. Lab.ishi	5	1	5
Jami:		35	8	35
Oraliq nazorat	1. Test	20	1	20
	2. Yozma ish	15	1	15
Jami:		35	2	35
Yakuniy nazorat	1.Yozma ish.	30	1	30
Jami:		30	11	100

III. O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Aripov M. Informatika va informasion texnologiyalar Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik T. 2005 y
2. Sattorov A. Informatika va axborot texnologiyalari. - Akademik lisey va kasb – hunar kollejlari uchun darslik. – T.: Uzbekiston, 2002 y.
3. G'ulomov S.S., va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik/Akademik S.S. G'ulomovning umumiy tahriri ostida -T.: «Sharq», 2000. 529 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Петров. CorelDraw 9: Справочник. – Москва: Бином, 2000 г.
2. Миронов Д. CorelDraw 9: Учебный курс. Москва, 2000 г.
3. М. Бурлаков. CorelDraw 12. Москва, 2004 г .
4. Дуванов А.А. Web – дизайн. - М.: 2004.
5. Лебедев С. Web конструирование. М.: 2004
6. Вендров А.М. CASE-технологии Современные методы и средства проектирования информационных систем. <http://www.cs.ifmo.ru/docs/case/>

Elektron ta'lim resurslari

1. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
4. <http://www.edu-navigator.ru>
5. [http:// corel.Deamiart.ru/](http://corel.Deamiart.ru/).
6. <http://www.phis.org.ru/informatika/>

Izoh: Qo'shimcha adabiyotlar boshqa ilmiy kutubxonalarda mavjud.

MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S-(strength)	• Kuchli tomonlari
W – (weakness)	• Zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• Imkoniyatlari
T – (threat)	• To'siqlar

Namuna: Windows OT ning SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Windows OT dan foydalanishning kuchli tomonlari	Ushbu operatsion tizimli dasturlash tili bo'lib, boshqa dasturlash tillarida ham tizimli masalalarni yechishda a murojaat etiladi.
W	Windows OT dan foydalanishning kuchsiz tomonlari	Windows OT ning strukturasi murakkabligi.
O	Windows OT dan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	Windows OT ni mukammal o'zlashtirgan dasturchilar muam-moli masalalarni yechishda va yuzaga keladigan xatoliklarni bartaraf etishda mukammal muhit hisoblanadi.
T	To'siqlar (tashqi)	Ma'lumotlar xavfsizligining to'laonli ta'minlanmaganligi

Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener tinglovchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi

Namuna:

Operatsion tizimlar					
MS DOS		NC		WINDOWS	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqyea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Berilgan topshiriq asosida dastur algoritmi tuzilib C++ dasturlash tilida dastur matni yozildi. Dasturni acm.tuit.uz saytiga yuborilganda “kompilyatsiyada hatolik” habari chiqdi. Yaʼni Sistema yechimni qabul qilmadi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdgi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Xatolikni bartaraf etuvchi ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

F	• Fikringizni bayon eting
S	• Fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	• Ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	• Fikringizni umumlashtiring

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhviy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna.

Fikr: Dasturiy ta'minot komputerning asosiy tarkibiy qismi va asosiy tamoyillaridan biridir”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o’zlashtirish ko’rsatkichi va amaliy ko’nikmalarini tekshirishga yo’naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo’nalishlar (test, amaliy ko’nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo’yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg’ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o’rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg’ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o’z-o’zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o’qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o’quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo’shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to’g’ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



Test

- 1.10⁻⁸ aniqlikda natijani chop etish qanday bajariladi?
- A. printf(“%.8f”,x)
- B. cout<<x
- C. cout<<(“%.8f”,x)



Qiyosiy tahlil

- Dasturiy ta’minot mahsulotlardan foydalanish ko’rsatkichlarini tahlil qiling?



Tushuncha tahlili

- STD qisqartmasini izohlang.



Amaliy ko’nikma

- Windows muhitida ishlash uchun qo’shimcha kutubxona fayllarini o’rnating va sozlang.

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod o’quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o’zlashtirishini yengillashtirish maqsadida qo’llaniladi, shuningdek, bu metod o’quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o’taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1- matn	2- matn	3- matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tutilq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha	Qo'shimcha ma'lumot
--------------	-------------------------	---------------------

	qanday ma'noni anglatadi?	
Fayl	Makro deriktivalarni belgilash	a directive that defines a macro.
katalog	Bir source fayl ichida boshqa bir faylag murojatni amalga oshirish mexanizmi	a mechanism for textual inclusion of one source file into another.
tizim	add-and-assign operatori; masalan $a+=b$ vazifazi jihatdan $a=a+b$ bilan bir xil	add-and-assign operator; $a+=b$ is roughly equivalent to $a=a+b$.
open	Dastur jodini o'zida jamlovchi fayl	file containing definitions.
copy	Dastur jodini o'zida jamlovchi fayl	file containing definitions.
delete	Sarlavha fayli	header file
address	Hotira manzili	a memory location

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.


Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Dasturlash tillari turlari bo'yicha



“Blis-o’yin” metodi

Metodning maqsadi: o’quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo’llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o’rganish talab etiladi. Shundan so’ng, ishtirokchilarga to’g’ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o’qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a’zolarini o’z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o’tkazib, o’z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to’xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo’limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o’z ishlarini tugatgach, to’g’ri harakatlar ketma-ketligi trener-o’qituvchi tomonidan o’qib eshittiriladi, va o’quvchilardan bu javoblarni «to’g’ri javob» bo’limiga yozish so’raladi.

4. «To’g’ri javob» bo’limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo’limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so’raladi. Shundan so’ng «yakka xato» bo’limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo’shib chiqilib, umumiy yig’indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to’g’ri javob» va «guruh bahosi» o’rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo’limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo’shiladi va umumiy yig’indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o’qituvchi yakka va guruh xatolarini to’plangan umumiy yig’indi bo’yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

«OT ni o'rnatish va sozlash» ketma-ketligini joylashtiring. O'zingizni tekshirib ko'ring!

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
#include <iostream>			1		
using namespace std;			2		
int main() {			3		
Cout<< "Hello, World!" <<endl;			4		
return 0;			5		
}			6		

“Brifing” metodi

“Brifing”- (ing. briefing-qisqa) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag'ishlangan qisqa press-konferensiya.

O'tkazish bosqichlari:

Taqdimot qismi.

Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, amaliy o'yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag'ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo'ladi. Tinglovchilar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o'tkazishda ham foydalanish mumkin. **“Portfolio” metodi** “Portfolio” – (ital. portfolio-portfel, ingl.hujjatlar uchun papka) ta'limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o'quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig'indisi sifatida aks etadi. Jumladan, talaba yoki tinglovchilarning modul yuzasidan o'zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta'limiy faoliyat	Tinglovchilar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Tinglovchilar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

Samarqand davlat universiteti Amaliy matematika va informatika fakulteti
«Axborotlashtirish texnologiyalari» kafedrası
«KOMPYUTER GRAFIKASI» fanidan talabalar bilimini reyting asosida

BAHOLASH MEZONLARI

Informatikani o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishlari (2-kurs)

Joriy nazoratlarni baholash mezonlari

№	Baholanadigan ish turi	Jami	1-Jb	2-Jb
		35	17	18
	Darsdagi faollik	12	6	6
	Nazorat ishi	6	3	3
	Uy vazifasi	7	3	4
	Mustaqil ish	10	5	5

Oraliq nazoratlarni baholash mezonlari

№	Baholanadigan ish turi	Jami	1-Ob	2-Ob
		35	17	18
	Test savollari	25	12	13
	Mustaqil ish (referat)	10	5	5

Yakuniy nazoratlarni baholash mezonlari

№	Baholanadigan ish turi (yozma ish)	Jami
		30
1.	1-nazariy savol	6
2.	2-nazariy savol	6
3.	3-nazariy savol	6
4.	4-amaliy misol	6
5.	5-amaliy misol	6

Fan o'qituvchilari:

Xolmonov S.M.

1.Mavzu 2-soat	Adobe Photoshop dasturining ishchi muxiti: asosiy menyu, instrumentlar paneli, Ranglar palitrasi, saxifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish soxasi. Insturmentlar paneli insturmentlari.
---------------------------------	--

Ma`ruza darsini olib borish texnologiyasi

Talabalar soni:	<i>Vaqti -2 soat</i>	
Dars shakli	Ma`ruza	
<i>Ma`ruza rejasi</i>	1. Adobe Photoshop dasturi haqida umumiy ma`lumot 2. Adobe Photoshop dasturining ishchi muxiti 3. Ranglar palitrasi, saxifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish soxasi. Insturmentlar paneli insturmentlari	
Dars maqsadi : Talabalarda dasturning ishchi muxiti: asosiy menyu, instrumentlar paneli, ranglar palitrasi, saxifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish soxasi. insturmentlar paneli insturmentlari to`g`risida tushunchalar hosil qilish.		
<i>Pedagog vazifalari:</i> • Adobe Photoshop dasturi haqida umumiy ma`lumot berish</li><li>• Adobe Photoshop dasturining ishchi muxitini tushintiradi</li><li>• Ranglar palitrasi, saxifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish soxasi. Insturmentlar paneli insturmentlari to`g`risida bilim berish.	<i>O`quv natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"><li>• Adobe Photoshop dasturi haqida umumiy ma`lumot oladi • Adobe Photoshop dasturining ishchi muxitini tushinadi. • Ranglar palitrasi, saxifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish soxasi. Insturmentlar paneli insturmentlarini farqlaydi.	
<i>O`qitishning usul, texnikasi:</i>	Ma`ruza, aqliy hujum, “Ven - diagrammasi”, fikr almashish, B/B/B-jadvali	
<i>O`qitish vositalari:</i>	Ma`ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar	
O`qitish shakli:	Frontal	
O`qitish shart – sharoitlari:	Texnik vositalarni qo`llashga mo`ljallangan auditoriya.Proektor	
Monitoring va baholash:	Og`zaki so`roq, savol-javob, tahlil natijalari.	

«Adobe Photoshop dasturining ishchi muxiti: asosiy menyu, instrumentlar paneli, Ranglar palitrasi, saxifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish soxasi. Insturmentlar panelida quyidagi insturmentlar» mavzusidagi ma`ruza darsiga texnologik karta

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	pedagog	talaba
1-bosqich.	1.1. Mavzuni e`lon qiladi va tegishli	Eshitadilar va kerakli ma`lumot-

Kirish (10 daqiqa)	adabiyotlar ro'yhati bilan tanishtiradi.(1.1- ilova) 1.2.Faollashtiruvchi savollar bilan talabalarga murojat etadi va talabalarning bilim darajasini diagnostikasini amalga oshiradi (aqliy hujum).(1.2-ilova)	larni yozib oladilar. Savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy bosqich (60daqiqa)	2.1. Adobe Photoshop dasturi haqida umumiy ma'lumot slaydlardan foydalangan holda yoritib beradi (2.1- ilova). 2.2. Adobe Photoshop dasturining ishchi muxiti. Ranglar palitrasi, saxifalar xisoblagichi, hujjat oynasi, chop etish soxasi. Insturmentlar paneli insturmentlarini yoritib beradi (2.2-ilova) 2.3 Mavzu bo'yicha nazorat ishlari yuzasidan murojaat etadi. ("Ven diagrammasi" asosida). (2.3-ilova)	2.1.Eshitadilar va chizib oladilar Savollarga javob beradilar 2.2.Talabalar yozib oladi. 2.3.Savollarga javob beradilar
3-bosqich YAkuniy. (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytib o'tadi. 3.2. Talabalarning dars davomidagi faoliyatini tahlil etadi va baholaydi. (B/B/B-jadvali) (3.2-ilova)	3.1.Savol beradilar. 3.2.YOzadilar.

1.1
-
ilo
va



1. Sh.A.
2. Petrov
2004
3. E.V,
M. 200
4. G Par

1.2- ilova

Savollar:

1. «Nuqtali grafika» tushunchasi nimani anglatadi?
2. «Vektorli grafika» tushunchasi nimani anglatadi?
3. Qanday grafik muharrirlarni bilasiz?

2.1-ilova

Rastrli grafikada har qanday tasvir nuqta - piksellardan tashkil topgan bo'ladi. Har bir piksel alohida rangga ega bo'ladi. Ular majmuasi esa yaxlit tasvirni tashkil etadi. Foydalanuvchi har bir pikselga ishlov berish imkoniga ega bo'ladi, tasvirdagi piksellar soni qanchalik ko'p bo'lsa, tasvir shunchalik yuqori sifatli bo'ladi. Tasvirdagi piksellar zichligi DPI (Dot Per Inch - dyuymdagi nuqtalar soni) deyiladi, ya'ni bir dyuymda (1 dyuym=2,54 sm) nechta nuqta joylashganligini belgilaydi. Rastrli kompyuter grafikasida ranglar tizimiga katta e'tibor qaratish kerak. Grafikada asosan RGB (Red, Green, Blue) va CMYK (Cyan, Magenta, Yellow, black) rang tizimlari qo'llaniladi. RGB ang tizimi ekranda tasvirlanadigan rasmlar uchun (masalan veb-

sahifada), CMYK rang tizimi asosan chop etiladigan tasvirlar uchun foydalaniladi.

Adobe Photoshop dasturi hozirgi kunda eng mashhur va butun dunyo mutaxassislari tomonidan tan olingan dastur hisoblanadi. Buning asosiy sabablari - uning boy va keng imkoniyatlari, qulay va oson interfeysi (muloqoti), deyarli barcha grafik formatlar va tizimlar bilan ishlashi.

Adobe Photoshop “bitmapped images” nuqtali grafika yaratish va taxrir kilish uchun qo'llaniladi. Bu dasturdan fotorasmlar, illyustratsiyalar, slaydlar va web – saxifalar uchun tasvirlarda keng foydalaniladi. Adobe Photoshop juda keng imkoniyatlarga ega. Bu dasturdan fotograflar rasmlar ustida ishlashda keng foydalanishadi. Ranglar uyg'unligini kuchaytirishda keng qo'llanishadi. Bu dasturda instrumentlar paneli juda yaxshi va mukammal o'ylab topilgan va kiritilgan. Bu ayniqsa dizaynerlarga juda qo'l keladi va ular bu dasturdan foydalanishmoqda. Adobe Photoshop dasturi o'zida butun ranglar spektrini jamlab olganligi bois fotorasmlarni ranglarini uyg'unlashtirishda juda asqotadi.

Adobe Photoshop dasturi yaratuvchilari Windows OT uchun quyidagi minimal talablarni qo'yishgan:


- Protsessor Pentiumdan II kam bo'lmasligi kerak.
- Tezkor xotira 64 Mbaytdan kam emas, agar bir vaqtning o'zida

Adobe Photoshop va Image Ready dasturlari yuklansa , xotira 96 Mbaytdan kam bo'lmasligi zarur.

- Qattiq diskda 250 Mbayt bo'sh joy
- Videodapter 256 rangdan kam bo'lmasligi kerak
- WINDOWS 2000 yoki WINDOWS XR operatsion tizimlari;

2.2-ilova

Adobe Photoshop dasturi ishga tushirilgach quyidagi oyna ochiladi:





Adobe Photoshop dasturining oynasi quyidagi ko'rinishga ega:

Dastur oynasi bir nechta qismdan tashkil topgan:

- Dastur sarlavhasi - dastur nomlarini aks ettiradi;
- Menyular qatori - dasturda bajarilishi mumkin bo'lgan barcha farmoish va amallar, effektlar, sozlashlarni o'ziga olgan;
- Xossalar paneli - biror bir uskuna tanlanganida uni sozlash va ko'rsatkichlarini o'zgartirish uchun foydalaniladi;
- Uskunalar paneli - asosiy amallar bajarilishini ta'minlaydigan anjom-uskuna va uskunalarni o'ziga mujassam etgan;
- Joriy ochilgan hujjat - bevosita tasvir, fayl nomi va kengaytmasi, rang tizimi va tasvirlash masshtabi (% da);
- Holat satri - joriy masshtabni % da, hujjat hajmi, joriy bajarilayotgan amal nomini aks etadi;
- Navigator - tasvir masshtabini ko'rsatish va ixtiyoriy joyini kattalashtirish va tanlash;
- Ranglar/Namunalar/Stillar (Svet/Obrazsi/Stili) - tasvirda foydalanishi mumkin bo'lgan ranglarni tanlash, yangisini qo'shish, tayyor stillarni qo'llash;
- Tarix/Amallar (Istoriya/Deystviya) - hujjat yaratilganidan (ochilganidan) boshlab uning ustida barcha bajarilgan amal va ishlovlar ro'yxati (tarixi);
- Qatlamlar/Kanallar (Sloi/Kanali) - tasvirni tashkil etuvchi barcha qatlamlar va rang kanallari bilan ishlash.

Файл Новый...Ctrl+N Открыть...Ctrl+O Пролистать...Shift+Ctrl+O Открыть Как...Alt+Ctrl+O Открыть Последний▶ Редактировать в ImageReadyShift+Ctrl+M ЗаккрытьCtrl+W Заккрыть всеAlt+Ctrl+W СохранитьCtrl+S Сохранить Как...Shift+Ctrl+S Сохранить версию... Сохранить для Web...Alt+Shift+Ctrl+S ВернутьF12 Поместить... Сервисы Online... Импорт▶ Экспорт▶ Автоматизация▶ Сценарии▶ Файл Инфо...Alt+Ctrl+I Версии... Настройка Страницы...Shift+Ctrl+P Печать с предпросмотром...Alt+Ctrl+P Печать...Ctrl+P Печатать одну копиюAlt+Shift+Ctrl+P Перейти к▶ ВыходCtrl+Q	Редактирование Отмена Прямоугольное ВыделениеCtrl+Z ВпередShift+Ctrl+Z НазадAlt+Ctrl+Z Сглаживание...Shift+Ctrl+F ВырезатьCtrl+X КопироватьCtrl+C Копировать СоединенияShift+Ctrl+C ВставитьCtrl+V Вставить ВShift+Ctrl+V Очистить Проверка орфографии... Найти и заменить текст... Залить...Shift+F5 Штриковать... Проквольная ТрансформацияCtrl+T Трансформация▶ Назначить установки кисти... Определить Обрезоц... Определить Заказную Форму... Очистка▶ Цветовые установки...Shift+Ctrl+K Горячие клавиши...Alt+Shift+Ctrl+K Инициализация Менеджера... Предпочтения▶
Фильтр Последний ФильтрCtrl+F Вычитание...Alt+Ctrl+X Filter Галерея... Сжижение...Shift+Ctrl+X Создатель узоров...Alt+Shift+Ctrl+X Render▶ Sketch▶ Video▶ Пикселизация▶ Резкость▶ Смазывание▶ Стилизация▶ Шум▶ Другие▶ Artistic▶ Blur▶ Brush Strokes▶ Digimarc▶ Distort▶ Other▶ Pixelate▶ Stylize▶ Texture▶	Слой Новый▶ Дублировать Слой...▶ Удалить Слой▶ Свойства Слоя... Эффекты Слоя▶ Новая Заливка Слоя▶ Новая Установка Слоя▶ Изменить Содержание Слоя▶ Настройка Содержания Слоя...▶ Тип▶ Отрисовка▶ Новые Фрагменты Слоя▶ Добавить Маску▶ Показать Маску▶ Добавить векторную маску▶ Включить векторную маску▶ Группировать с ПредшествующимCtrl+G РазгруппироватьShift+Ctrl+G Расположение▶ Выравнивание Связей▶ Распределение Связей▶ Закрыть Все Слои в Наборе... Слечь слойCtrl+E Объединить с ВидимымShift+Ctrl+E Выполнить сведение▶ Обработка краев▶





2.3-ilova


«VENN diagrammasi»

U ikki yoki undan ortiq katta o'lchamdagi o'zaro kesishuvchi aylanalar asosida tuziladi. Aylanalar orasida yozuv uchun yetarli joy qolishi kerak.

Bu diagramma asosan g'oyalarni bir-biridan ajratish uchun qo'llaniladi va taqqoslanayotgan ob'ektlarga xos umumiy va individual xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

Vazifa.

«Venn diagramma» asosida Corel Draw, Photoshop, Paint, dasturlarini grafik imkoniyatlarini taqqoslang.



3.2-ilova

B/B/B jadvali

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

2.Mavzu 2-soat	Xossalar paneli. Ranglar palitrasi. Holat qatori. Kontekstli menyu
-------------------	--

Ma`ruza darsini olib borish texnologiyasi

<i>Talabalar soni:</i>	<i>Vaqt -2 soat</i>
<i>Dars shakli</i>	Ma`ruza
<i>Ma`ruza rejasi</i>	1. Adobe Photoshop dasturi xossalar paneli. 2. Adobe Photoshop dasturining ranglar palitrasi 3. Holat qatori. Kontekstli menyu
Dars maqsadi : Talabalarda xossalar paneli, ranglar palitrasi, holat qatori, Kontekstli menyu to'g'risida tushunchalar hosil qilish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i>	<i>O'quv natijalari:</i>

• Adobe Photoshop dasturi xossalar paneli haqida umumiy ma'lumot berish • Adobe Photoshop dasturining ranglar palitrasini tushintiradi • Holat qatori. Kontekstli menyu to'g'risida bilim berish.	• Adobe Photoshop dasturi xossalar paneli haqida umumiy ma'lumot oladi • Adobe Photoshop dasturining ranglar palitrasini tushinadi. • Holat qatori. Kontekstli menyu to'g'risida bilim oladi
<i>O'qitishning usul, texnikasi:</i>	Ma'ruza, aqliy hujum, "Ven diagrammasi", fikr almashish, Insert-jadvali
<i>O'qitish vositalari:</i>	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar
O'qitish shakli:	Frontal
O'qitish shart – sharoitlari:	Texnik vositalarni qo'llashga mo'ljallangan auditoriya.Proektor
Monitoring va baholash:	Og'zaki so'roq, savol-javob, tahlil natijalari.

« Xossalar paneli. Ranglar palitrası. Holat qatori. Kontekstli menyu » mavzusidagi ma'ruza darsiga texnologik karta

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	pedagog	talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzuni e'lon qiladi va tegishli adabiyotlar ro'yhati bilan tanishtiradi.(1.1- ilova) 1.2.Faollashtiruvchi savollar bilan talabalarga murojat etadi va talabalarning bilim darajasini diagnostikasini amalga oshiradi(aqliy hujum).(1.2-ilova)	Eshitadilar va kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar. Savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy bosqich (60daqiqa)	2.1. Adobe Photoshop dasturi xossalar panelini slaydlardan foydalangan holda yoritib beradi (2.1- ilova). 2.2. Adobe Photoshop dasturining ranglar palitrası. Holat qatori. Kontekstli menyu imkoniyatlarini yoritib beradi (2.2-ilova) 2.3 Mavzu bo'yicha nazorat ishlari yuzasidan murojaat etadi. ("Ven diagrammasi" asosida). (2.3- ilova)	2.1.Eshitadilar va chizib oladilar Savollarga javob beradilar 2.2.Talabalar yozib oladi. 2.3.Savollarga javob beradilar
3-bosqich Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytib o'tadi. 3.2. Talabalarning dars davomidagi faoliyatini tahlil etadi va baholaydi. (Insert-jadvali) (3.2-ilova)	3.1.Savol beradilar. 3.2.YOzadilar.

1.1-ilova


Mavzu: Xossalar paneli. Ranglar palitrasi. Holat qatori. Kontekstli menyu

Reja:

1. Adobe Photoshop dasturi xossalar paneli.
2. Adobe Photoshop dasturining ranglar palitrasi
3. Holat qatori. Kontekstli menyu

1. Sh.A.Nazirov, F.M.Nuuraliyev, B.Sh.Aytmuratov. Rastr va vektor grafika. Toshkent. 2007
2. Petrov M. N., Molochkov V. P. [Kompyuternaya grafika. Uchebnik dlya vuzov \(2-e\)](#). Piter. 2004
3. E.V, SHikin, A. V. Boreskov. Kompyuternaya grafika. (Poligonalnye modeli), M. 2001,
4. G Pankratova «Photoshop» Uchebny kurs. Sankt-Peterburg. 2002 god

1.2- ilova




1. Photoshop dasturi yaratuvchilari Windows OT qanday minimal talablarni qo'yishgan?
2. Photoshop dasturi ishchi oynasi qanday tuzilgan?
3. Corel Draw va Photoshop dasturi ishchi oynasi farqli jihatlari?

2.1-ilova

Xossalar paneli. Dasturdagi ochiluvchi panel ya'ni xossalar paneli foydalanuvchiga dastur bilan ishlash mobaynida qator qulayliklar yaratadi. Panel - biror bir uskuna tanlanganida uni sozlash va ko'rsatkichlarini o'zgartirish uchun foydalaniladi;

 - Muyqalam (kist) - [B] - chizish asosiy ish quroli. Agar muyqalamdan foydalangan vaqtda Shift tugmasini bosib sichqoncha bilan chizsak, u xolda tug'ri chiziqlar chiziladi. Shift tugma yordamida sichqoncha bosib nuqtalarni bir biri bilan bog'lash xam mumkin. Muyqalam bilan chizilgan chiziqlar qalamga qaraganda chegaralari aniq kurinmaydi.

Xususiyatlar satrida quyidagilar faol bo'ladi: qalam turini va qalinligini tanlash, chiziqlarni tasvir ustida yozilish holatini o'zgartirish, chiziqlar ko'rinmaslik darajasini o'zgartirish, qalam faqat bo'sh sohada chizishi mumkinlagini o'rnatish, mokrye kraya - "ho'l chegaralar" akvarel bilan chizish effekti mavjud.



2.2-ilova


Photoshop dasturidagi tasvirlar ekranda rastr ko'rinishida beriladi, ya'ni to'g'rito'rtburchak torning tugunlarida joylashgan har xil rangdagi nuqtalarning yig'indisi. Piksel deb nomlanadigan nuqtalar qandaydir bir rangni yoki soyani beradi. Tasvirning bitta qismini kattalashtirib piksellarni muharrirlash mumkin.



Photoshop dasturidagi har qanday rastr ko'rinishidagi tasvir bo'lib hisoblanadi; u skaner yordamida olindimi, boshqa muharrirdan eksport qilindimi yoki Photoshop dasturida chizish yoki muharrirlash yordamida yaratilganidan qat'i nazar. Rastr tasvirlar bilan ishlovchi dasturlar jivopisli, fotografiya yoki fotoreal (ranglar farqi juda kam tasvirlar) tasvirlar bilan ishlaydi. Agarda chizish instrumentlaridan bittasini tanlagan holda qatlam ustidan kursorni olib o'tilsa, kursordan o'tgan piksellar bo'yalgan bo'ladi.

RGB va CMYK ranglari

Monitor ekranidan rangli tasvirni olish uchun qizil, yashil va ko'k (Red, Green, Blue — RGB) nurlari ishlatiladi. Agarda bu uch rangni bir-biriga toza holda aralashtirsak u holda oq rangni olamiz. 1-rasmda berilgan




To'rtta rangli bosmada uchta asosiy bo'yoqlar ishlatiladi: ko'k (C, cyan), purpur (M, magenta) va sariq (Y, yellow) — 2-rasmda berilgan.

Bu ranglarni aralashtirganimizda qoraroq tiniq bo'lmagan rang paydo bo'ladi. To'q qora rangni olish uchun printerlarda qora siyoh (K, black) bilan kam miqdordagi ko'k, purpur yoki sariq siyohlar bilan aralashtiriladi.

Monitor ekranidagi ranglarning tasvirlanishi yorug'lik tushi-shiga, monitor haroratiga va aylanamizdagi predmetlarning rangiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, real hayotdagi ranglar bosmadan chiqarilmaydi, ekranda tasvirlangan hamma rang bosmadan chiqarilmaydi, ba'zi bir ranglar bo'lsa, monitor ekranida tasvir-lanmaydi. Hamma monitorlar RGB modeliga asosan tasvirlanadi, CMYK — rangi esa simulyatsiya qilinadi. Faqat CMYK modelini bosmaga chiqarishda ahamiyati katta. Agarda siz berilgan tasvirni set yordamida uzatmoqchi bo'lsangiz yoki kinoplenka qurilmasiga bermoqchi bo'lsangiz, u tasvirlarning RGB rejimidan CMYK

rejimiga o'tishi uchun bosh qotirmasa ham bo'ladi.

Agarda siz bosmaga chiqadigan (gammaga kirmaydigan) rangni tanlasangiz, “TSvet” palitrasidagi undov belgisi chiqariladi. Shu belgi “Informatsiya” palitrasida ham chiqariladi, agarda kursor ko'rsatayotgan piksel rangi gammaga kirmasa.




Photoshop dasturidagi “Preduprejdenie o gamme” buyrug'i yordamida bosmaga chiqarilmaydigan ranglarni boshqa rang bilan berish mumkin va keyin “Gubka” instrument yordamida rangning gammasiga o'tkazib olsa bo'ladi.

Photoshop dasturidagi ranglarni tanlash panelida yoki **Color** panelidan quyidagi ranglar modelini tanlash mumkin: “Polutonovoe izobrajenie”, **RGB** (red-green-blue — krasnyy-zelenyy-siniy), **CMYK** (cyan-magenta-yellow-black — goluboy-purpurnyy-jeltyy-chernyy) yoki **Lab** (lightness-a axis-b axis — yarkost i tsvet na osyax a i b).

Holat satridan foydalanish

Windows sistemasida ishlaganimizda “Okno” – ☒ Строка статуса tanlansa, bu holat satrini oynada joylashtiradi. “Okno” – ☐ Строка статуса bo'limidan belgi olib tashlansa, holat satrini ko'rinmas holga olib keladi.

Agarda uchib chiquvchi menyuda holat satr tasviridagi qo'shimchani pastida joylashgan bo'lsa, “Размеры документа” belgilangan bo'ladi. Holat satrida tasvirning saqlanadigan qatlamlari biriktirilgan (birinchi raqami) fayl hajmi va ko'p qatlamli tasvirlar uchun fayl hajmi beriladi (ikkinchi raqami).



Holat satridan kerakli bo'lgan ma'lumotni olish uchun meny.


Agarda “Profil dokumenta” aktivlash-tirilgan bo'lsa, u holda holat satrida hujjatning rang profillari berilgan bo'ladi, agarda hujjat hech qanday profilga ega bo'lmasa u holda «Nepomechenyy RGB» ma'lumot chiqadi.

“Ob'em pamyati” punktini tanlashda holat satrining chap tomonida ochiq bo'lgan hujjatlarning hajmi, o'ng tomonida esa, Photoshop dasturi uchun operativ xotiradan egallagan hajmi beriladi. Agarda birinchi son ikkinchisidan katta bo'lsa, u holda dastur vertual xotiradan foydalanayotgan bo'ladi. “Effektivnost” xossasini tanlab, dasturni qancha vaqt operativ xotirada ishlaganini ko'rsatadi. Agarda 100% dan kam bo'lsa, u holda diskdagi vaqtincha joydan foydalangan.

“ Tekushee sredstvo” punktini tanlash natijasida joriy vaqtda ishlayotgan instrument haqida ma'lumot beriladi.

Bulardan tashqari, holat satri ustida sichqoncha chap tugmasini bosgan holda, sahifani berilgan qog'oz o'lchamlarga mos kelishini tekshirib ko'rasiz (markerlarni ham hisobga olgan holda).


Kontekstli menyu. Bir so'z bilan aytganda ob'ektlar shaklini tahrirlash uchun ishlatiladi. Agarda ob'ekt ustida murakkab tahrirlash ishlarini bajarish zarur bo'lsa, ushbu uskunaga tegishli xossalar panelidan yoki belgilangan shakl ustida “sichqonchaning” o'ng tugmasini bosish bilan hosil qilingan Kontekstli menyu buyruqlaridan foydalanishimiz mumkin. Bu menyu ham buyruqlar bilan ishlash va amallar bajarilishini tezlashtirish uchun mo'ljallangan. Photoshop dasturi bilan ishlash jarayonida biz Kontekstli menyu orqali ishlashni tez o'rganishimiz mumkin. Misol sifatida ob'ekt uchun ochilgan Kontekstli menyuni keltiramiz:



VENN diagrammasi»

U ikki yoki undan ortiq katta o'lchamdagi o'zaro kesishuvchi aylanalar asosida tuziladi. Aylanalar orasida yozuv uchun etarli joy qolishi kerak.

Bu diagramma asosan g'oyalarni kontrastlash (bir-biridan ajratish) uchun qo'llaniladi va taqqoslanayotgan ob'ektlarga xos umumiy va individual xususiyatlarini ko'rsatib beradi.



Вазифа.

«Venn diagrammasi» asosida RGB, CMYK, HSB, HSL rang modellarini taqqoslab bering.

3.2-ilova

Insert jadvalini to'ldirish tavsiya etiladi.

O'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni alohida o'zlari tizimlashtiradilar - jadval ustunlariga "kiritadilar" matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq:

"V" - men bilgan ma'lumotlarga mos;

"-" - men bilgan ma'lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma`lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma`lumotni aniqlash, to`ldirish talab etiladi.

Insert jadvali

V	+	-	?

3.Mavzu 2-soat	Hujjatlarni ochish. Tasvir masshtabi. Chizqichlar va ulardan foydalanish. Hujjatni aks ettirish tartiblari. Fayllarni saqlash.
---------------------------------	---

Ma`ruza darsini olib borish texnologiyasi

Talabalar soni:	<i>Vaqt</i> -2 soat
Dars shakli	Ma`ruza
<i>Ma`ruza rejasi</i>	1. Hujjatlarni ochish. Tasvir masshtabi 2. Chizqichlar va ulardan foydalanish. Hujjatni aks ettirish tartiblari 3. Fayllarni saqlash
Dars maqsadi : Talabalarda hujjatlarni ochish tasvir masshtabi, chizqichlar va ulardan foydalanish, hujjatni aks ettirish tartiblari, fayllarni saqlash to`g`risida tushunchalar hosil qilish	
<i>Pedagog vazifalari:</i> Hujjatlarni ochish. Tasvir masshtabi haqida umumiy ma`lumot berish</li> <li>Chizqichlar va ulardan foydalanish. Hujjatni aks ettirish tartiblarini tushintiradi</li> <li>Fayllarni saqlash to`g`risida bilim berish.	<i>O`quv natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> <li>Hujjatlarni ochish. Tasvir masshtabi haqida umumiy ma`lumot oladi - Chizqichlar va ulardan foydalanish. Hujjatni aks ettirish tartiblarini tushinadi. - Fayllarni saqlash to`g`risida bilim oladi
<i>O`qitishning usul, texnikasi:</i>	Ma`ruza, aqliy hujum, fikr almashish, “Muammoli ta`lim” meodi-“Nima uchun?”-jadvali
<i>O`qitish vositalari:</i>	Ma`ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar
O`qitish shakli:	Frontal
O`qitish shart – sharoitlari:	Texnik vositalarni qo`llashga mo`ljallangan auditoriya.Proektor
Monitoring va baholash:	Og`zaki so`roq, savol-javob, tahlil natijalari.

« Hujjatlarni ochish. Tasvir masshtabi. Chizqichlar va ulardan foydalanish. Hujjatni aks ettirish tartiblari. Fayllarni saqlash.» mavzusidagi ma`ruza darsiga texnologik karta

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	pedagog	talaba
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzuni e`lon qiladi va tegishli adabiyotlar ro`yhati bilan tanishtiradi.(1.1- ilova) 1.2.Faollashtiruvchi savollar bilan talabalarga murojat etadi va talabalarning bilim darajasini diagnostikasini amalga oshiradi(aqliy hujum).(1.2-ilova)	Eshitadilar va kerakli ma`lumotlarni yozib oladilar. Savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy bosqich (60daqiqa)	2.1. Hujjatlarni ochish. Tasvir masshtabi slaydlardan foydalangan holda yoritib beradi (2.1- ilova). 2.2. Chizqichlar va ulardan foydalanish. Hujjatni aks ettirish tartiblari. Fayllarni saqlash imkoniyatlarini yoritib beradi (2.2-ilova)	2.1.Eshitadilar va chizib oladilar Savollarga javob beradilar 2.2.Talabalar yozib oladi.
3-bosqich YAkuniy. (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo`yicha yakuniy xulosalarni aytib o`tadi. 3.2. Talabalarning dars davomidagi faoliyatini tahlil etadi va baholaydi. ("Nima uchun"jadvali) (3.2-ilova)	3.1.Savol beradilar. 3.2.YOzadilar.

1.1-ilova


Mavzu: Hujjatlarni ochish. Tasvir masshtabi. Chizqichlar va ulardan foydalanish. Hujjatni aks ettirish tartiblari. Fayllarni saqlash.

Reja:

1. Hujjatlarni ochish. Tasvir masshtabi
2. Chizqichlar va ulardan foydalanish. Hujjatni aks ettirish tartiblari

1. Sh.A.Nazirov, F.M.Nuuraliyev, B.Sh.Aytmuratov. Rastr va vektor grafika. Toshkent. 2007
2. Petrov M. N., Molochkov V. P. [Kompyuternaya grafika. Uchebnik dlya vuzov \(2-e\)](#). Piter. 2004
3. E.V, SHikin, A. V. Boreskov. Kompyuternaya grafika. (Poligonalnye modeli), M. 2001,
4. G Pankratova «Photoshon» Uchebniv kurs Sankt-Peterburg 2002 god

1.2- ilova



1. Photoshop dasturi xossalar paneli imkoniyatlari?
2. Photoshop dasturi ranglar modellari?
3. Photoshop dasturi holat satri imkoniyatlari?

2.1-ilova

Photoshop dasturini ishga tushirgach, qo'llanmalar bilan ishlovchi menyu chaqiriladi. Bu menyu quyidagi buyruqlardan iborat: **Restore** (Vosstanovit) Qayta tiklash, **Move** (Peremestit) Siljitish, **Size** (Razmer) O'lcham, **Minimize** (Svernut) Kichkina qilish, **Maximize** (Razvernut) Katta qilish va **Close** (Zakryt) Yopish. Agarda Edit tugmasi bosilsa, hujjatlar bilan ishlovchi menyu chaqiriladi. Hujjatlar menyusi quyidagi asosiy buyruqlardan iborat: **Restore** (Vosstanovit) Qayta tiklash, **Move** (Peremestit) Siljitish, **Size** (Razmer) O'lcham, **Minimize** (Svernut) Kichkina qilish, **Maximize** (Razvernut) Katta qilish, **Close** (Zakryt) Yopish va **Next** (Sleduyushiy) Kelasi.

Nomer panelining xohlagan instrumenti sichqoncha bilan chertilsa, muloqot oynasiga, kichkina menyuchaga va buyruqlarga ruxsat olinadi.

Tanlangan instrumentning parametrlarini aniqlash uchun xossa panelidan foydalanamiz.

Qo'llanma oynasini yig'ish uchun **Minimize** bosiladi va natijada piktogramma masalalar paneliga joylashtiriladi. Oynaning awalgi holiga qaytarish uchun shu belgiga sichqoncha bilan chertish kifoya. **Maximize** (Razvernut) yoki hujjatdagi tugmalarni bosish esa oyna o'lchamlarini imkoniyat boricha kattalashtiradi. Agarda oynani awalgi holatiga qaytarmoqchi bo'lsangiz, **Restore** tugmasidan foydalaning. Oyna awalgi holiga qaytgandan keyin **Restore** tugmasi **Maximize** tugmasiga aylanib qoladi.

Yopish tugmasi qo'llanmani yopish uchun xizmat qiladi. Sarlavha tugmasi tasvirning nomi, masshtabi, joriy qatlam nomi yoki **Background** (Fon) identifikatori va tasvirlanish rejimi haqida ma'lumot beradi.

Hujjatni yig'ishtirib qo'yishsa bo'ladi, buning uchun **Minimize** tugmasidan foydalaniladi, natijada hujjat piktogrammasi qo'llanma oynasini chap tomonning pastki qismiga joylashtiradi. Agarda **Restore** (Vosstanovit) tugmasi sichqoncha bilan chertilsa oynani awalgi holiga qaytariladi.

Agarda tasvirni yoki palitrani yopmoqchi bo'lsangiz piktogram-maga cherting.


Oynadagi chiziqni na-moyon qilish uchun **View > Show Rulers** (Vid > Pokazat lineyki) buyruqlaridan foydalaniladi. Kursor holati marker yordamida mos chiziqcha-larni ko'rsatadi. Chiziqcha uchun o'lchov birliklari **Edit > Preferences > Units&Rulers** (Pravka > Ustanovki > Edinitsy iz-mereniya&lineyki) buyruqlari yordamida tanlanadi. Dastur 13 ta palitrage ega, ularni

ekran bo'yicha siljitish guruhlanishni o'zgartirishi yoki sukut (no umolchaniyu) saqlagan holda qabul qilishi mumkin. Palitra guruhidagi palitra nomiga (vkladkaga) chertilsa, u berilgan stekning eng yuqorisiga joylashtiriladi.

Instrumentlar panelini yoki joriy bo'lgan palitralarini ko'rsatish/ yo'qotish uchun Tab tugmasini bosib.

Mazkur Web – sahifaning kodi ixtiyoriy matn muxarririda kiritilib, saqlash amalini bajarishda fayl nomi bilan Web – hujjat kengaytmasi (.htm yoki .html) belgilanadi. Bu usulda saqlangan xujjatni yuklashda Internet Explorer brauzerida ochiladi. Web – sahifani ko'rib chiqib, unga o'zgartirishlar kiritish uchun kodli fayliga o'tish zarur bo'ladi, buning uchun gorizontaal menyu satridan Vid – Prosmotr HTML – koda buyruqlari tanlanishi mumkin. Kiritilgan o'zgartirishlar natijalarini ko'rish uchun saqlash amali bajarilishi va F5 tugmacha orqali Web – sahifani yangilanishi mumkin.





HTML dasturlash tilida matnlar bilan ishlashda teg atributlari

Ochiluvchi teglar ko'p hollarda tarkibida ma'lumot formatlari, stillari, joylashishlarini belgilovchi atributlarga ega bo'ladi. Atributlar - tegdagi kalit so'zlar bo'lib, ular o'zaro probel bilan ajratib yoziladi. Aksariyat atributlar qiymatlarni ko'rsatishni talab qiladi. Bu qiymatlar qo'shtirnoq belgisi bilan yozilib, atributlar bilan belgi bilan ajratib yoziladi.

Umumiy strukturasi: <teg atributi "Qiymat">

HTML dasturlash tilida matnlar bilan ishlashda qo'laniladigan teglar

№	Yozilishi	Ma'nosi
1	<HTML></HTML>	Saxifa tegi bilan boshlanadi yakun
2	<HEAD> </HEAD>	Sarlavha qismi teglar orkali ifodalana
3	<BODY> </BODY>	tana qismi teglar
4	<TITLE> va </TITLE>	teg orqali sarlavha matni kiritiladi
5	<p align="center">	sarlavha matni </p> - bu erda align="center" sarlavhaning markazda joylashishini ta'minlaydi.
6	<Body bgcolor="Blue">	umumiy sohaning rangi berildi</Body>
7	<HR>	teg orqali matn tarkibiga gorizontal chiziq hos
8	size	– qalinligini belgilaydi.
9	color	– rangini belgilaydi
10	Width	– uzunligini belgilaydi
11	Align	– joylashishini boshqaradi
12	<marquee>.</marquee>	matnni harakatlantiruvchi teg
13	<body bg color ="yellow" > </body bg color>	- fonga rang berish
14	 va 	matn formatini boshqarishda foy
15	Size	– matn o'lchamini  belgilaydi
16	Color	– matn tarkibidagi belgilar rangi  boshqariladi
17	Face	– shrift nomini  belgilaydi
18	matn 	matn razmeri
19		qizil rang inglizcha nomi
20		Times Roman shriftda yozilgan matn

21		tegi orqali bir nechta atributlarni ko'rsatish mumkin
22	M: 	matn qizil rangda, 3 o'lchamda, Arial shriftida yozildi
23	 	matnni qalinlashtiradi 
24	<i> </i>	matnni kursiv holatga keltiradi 
25	<u> </u>	matn tagiga chizadi 
26	<s> </s>	matn ustidan chizadi
27		daraja sifatida yozish 
28		indeks sifatida yozish 
29		o'ng tomondan formatlash 
30		teng tomondan formatlash 
31		chap tomondan formatlash 
32	<p align="center">	urtaga formatlash 
33	<big> </big>	matnni kattalashtiradi
34		matnni kichiklashtiradi

Matnlarni ro'yhat holatida kiritish

Ro'yhatlar tartiblangan, markerlangan bo'lishi mumkin yoki izohlar ro'yhati bo'lishi mumkin.

Tartiblangan ro'yhatlar.

Tartiblangan ro'yhatga misol:

1. Informatika
2. Matematika
3. Fizika

Tartiblangan ro'yhat ... teglari bilan tashkil etilib, xar bir elementi teglar bilan beriladi.

Tartiblashda raqam o'rnida (A, B, C, D), (a,b,c,d) yoki (I, II, III, IV) kabi tartiblarni qo'llash mumkin, buning uchun **type** atributidan foydalanamiz. Bu atribut qiymatlari:

- A** – Lotin alifbosi katta xarflari (A,B,C...)
- a** - Lotin alifbosi kichik xarflari (a,b,c...)
- I** – Katta Rim raqamlari (I,II,III...)
- i** – Kichik Rim raqamlari (i,ii,iii...)
- 1** – Arab raqamlari (1,2,3...)

Tegning yozilishi: <teg atribut="qiymat">, masalan <ol type="A">

Misollar:

1.	A. Informatika B. Matematika	<code><ol type="A"></code> <code></code> Informatika <code></code> Matematika <code></code>
2.	a. Informatika b. Matematika	<code><ol type="a"></code> <code></code> Informatika <code></code> Matematika <code></code>
3.	I. Informatika II. Matematika	<code><ol type="I"></code> <code></code> Informatika <code></code> Matematika <code></code>
4.	i. Informatika ii. Matematika	<code><ol type="i "></code> <code></code> Informatika <code></code> Matematika <code></code>
5.	1. Informatika 2. Matematika	<code><ol type="1 "></code> <code></code> Informatika <code></code> Matematika <code></code>

Tartibning boshlanish qiymatini belgilashda **start** atributidan foydalanamiz, uning qiymati sifatida boshlang'ich tartib beriladi.

Masalan:

14. Informatika 15. Matematika 16. Fizika	<code><ol type="1" start="14"></code> <code></code> Informatika <code></code> Matematika <code></code> Fizika <code></code>
---	--

Markerlangan ro'yhatlar

Markerlangan ro'yhat `<ul> ... </ul>` teglari bilan tashkil etilib, xar bir element `<li>` teglari bilan beriladi. Masalan:

• Informatika • Matematika • Fizika	<code></code> <code></code> Informatika <code></code> Matematika <code></code> Fizika <code></code>
---	--

Kora doirachalar o'rnida **type** atributi qiymatlari orqali quyidagi markerlardan foydalanish mumkin:

Disk – bo'yalgan doirachalar; **Circle** – aylanachalar; **Square** – kvadratchalar.

YOzilishi: `<teg atribut="qiymat ">`, masalan, `<ul type="square">`

1.	• Informatika	<code><ul type="disk"></code> <code></code> Informatika <code></code>
2.	○ Informatika	<code><ul type="circle"></code> <code></code> Informatika <code></code>
3.	▪ Informatika	<code><ul type="square"></code>

Izohlar ro'yhati.

Masalan, atamalar va ularning tasniflaridan tarkib topgan ro'yhat yaratish lozim bo'lsa, izohlar ro'yhati tashkil etilishi mumkin.

Misol:

FM050105 kurs, matematika – informatika bo'limi, D guruhi

FM030104 4 kurs, matematika – informatika bo'limi, G guruhi

FM030201 4 kurs, fizika – astronomiya bo'limi, A guruhi

Izohlar ro'yhati <dl> ... </dl> teglari bilan tashkil etilib, xar bir atama <dt>, tasnif <dd> teglari bilan beriladi. Yuqoridagi misol.

<dl> <dt> FM050105

<dd> 2 kurs, matematika – informatika bo'limi, D guruhi

<dt> FM030104

<dd> 4 kurs, matematika – informatika bo'limi, G guruhi

<dt>FM030201

<dd> 4 kurs, fizika – astronomiya bo'limi, A guruhi </dl>

Mavzu yuzasidan
savollar

? 4-ilova

- ? HTML dasturini yuklash usullari?
- ? HTML dasturining qanday asosiy elementlari bor?
- ? Teg tushunchasini izoxlang
- ? HTML dasturining struktirasi qanday tuzilgan?
- ? HTMLda matnlar bilan ishlash tartibi qanday?
- ? Matnlar o'lchamini, rangini, joylashishini qanday teglar bilan amalga oshiriladi?
- ? Qaysi teglar matnlarni ro'yhat xolatida kiritishga imkon beradi?

M a v z u : HTMLda jadvallar hosil qilish. Jadvallar ko'rinishi va boshqarish jarayonlari. Jadvallarning ustun va satr teglari

MA'RUZA DARSINI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni:	50-60 talaba
Vaqt:	2-soat
Dars shakli	Mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi:	1. HTMLda jadvallar hosil qilish. 2. Jadvallar ko'rinishi va boshqarish jarayonlari. 3. Jadvallarning ustun va satr teglari
Darsning maqsadi: Talabalarda HTMLda jadvallar hosil qilish haqida tushuncha hosil qilish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i> HTMLda jadvallar hosil qilish. Jadvallar ko'rinishi va boshqarish jarayonlari. Jadvallarning ustun va satr teglari haqida tushuncha beradi.	<i>O'quv natijalari:</i> • HTMLda jadvallar hosil qilish. • Jadvallar ko'rinishi va boshqarish jarayonlari. • Jadvallarning ustun va satr teglari haqida bilib oladi Mustaqil Web sahifalarda jadvallar yaratadi.
O'qitishning usul, texnikasi:	Ma'ruza, suxbat, baxs-munozara muhokama qilish, fikr almashish
O'qitish vositalari:	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar
O'qitish shakli:	Frontal
O'qitish shart sharoitlari:	Texnik vositalarni qo'llashga mo'ljallangan auditoriya. Proektor
Monitoring va baholash:	O/zaki so'roq, savol-javob, tahlil natijalari.

HTMLda jadvallar hosil qilish. Jadvallar ko'rinishi va boshqarish jarayonlari.

Jadvallarning ustun va satr teglari mavzusidagi

MA'RUZA DARSIGA TEXNOLOGIK KARTA

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich. Kirish (25 daqiqa)	1.1. Mavzuni e’lon qiladi, ma’ruza rejasi, tayanch so’z va iboralar tanishtiradi. (1-ilova)	Eshitadilar va kerakli ma’lumotlarni yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1.Mavzu rejalari asosida bayon etiladi (2-ilova) Jarayon komp’yuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi.	Eshitadilar va yozib oladilar
3-bosqich Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1. Talabalarga savollar bilan murojat etadi Mavzu bo’yicha yakuniy xulosalarni aytib o’tadi.(3-ilova) 3.2. Talabalarning dars davomidagi faoliyatini tahlil etadi va baholaydi. (B/B/B texnologiyasi 4-ilova)	Savollarga javob beradilar Mustaqil ishlashlarni bajaradi

2-ilova

MAVZU: HTMLda jadvallar hosil qilish. Jadvallar ko’rinishi va boshqarish jarayonlari. Jadvallarning ustun va satr teglari

MA’RUZA REJASI

1. HTMLda jadvallar hosil qilish.
2. Jadvallar ko’rinishi va boshqarish jarayonlari.
3. Jadvallarning ustun va satr teglari



TAYANCH SO’Z VA IBORALAR

HTMLdajadval tegi, ustun, satr teglari,

Mavzu bayoni

3-ilova

Jadvallar hosil qilish

Saxifa yaratishda jadvallardan foydalanish. Buning uchun **<table>** -jadval, **<td>** - jadval ustuni va **<tr>** - jadval qatorlari teglaridan foydalaniladi

Har bir jadval, teg **<TABLE>** bilan boshlanishi va teg **</TABLE>** bilan tugallanishi shart. Bu juft teglar ichida jadvaldagi barcha ta'riflar joylashtirilgan.

Har bir satr teg **<TR>** (Table Row) bilan boshlanadi va **</TR>** tegi bilan tugallanadi. Satrdagi alohida yacheykalar to'rt teglar **<TD>** va **</TD>** (Table Data) yoki **<TH>** va **</TH>** (Table Header) bilan o'raladi. Teg **<TH>** odatda yacheyka-sarlavhalar uchun, **<TD>** tegi esa, yacheyka-berilgan ma'lumotlar uchun qo'llaniladi. Foydalanishdagi ular orasidagi farq shrift tipiga bog'liq bo'ladi, chunki ular indamaslik bo'yicha yacheyka ichidagilarni aks ettirish va berilgan ma'lumotlar qanday joylashganligini bilish uchun ishlatiladi. **<TH>** tipli yacheyka ma'lumotlarni yarimquyuq (Bold) shrift bilan ko'rsatiladi va markaz bo'yicha joylashadi, (**ALIGN=**CENTER, **VALIGN=**MIDDLE).

<TD> tegi bilan aniqlangan yacheykalar chapga (**ALIGN=**LEFT) va o'rtaga (**VALIGN=**MIDDLE) vertikal yo'nalishga to'g'rilangan ma'lumotlarni indamaslik bo'yicha aks ettiradi.


<TD> va **<TH>** teglari **<TR>** jadval satri ta'rifidan tashqarida paydo bo'la olmaydi.

YAkunlovchi **</TR>**, **</TD>** va **</TH>** kodlari tushirib qoldirilishi mumkin.. YAkunlovchi jadval tegi **</TABLE>** esa, tushirib qoldirilishi mumkin emas.

Jadvaldagi satrlar miqdori ochuvchi teg **<TR>**lar soni bilan, ustunlar miqdori esa, **<TD>** yoki **<TH>**larning maksimal miqdori bilan aniqlanadi. Yacheykalar bir qismi hech qanday ma'lumotlarga ega bo'lmasliklari mumkin. Bu kabi yacheykalar ketma-ket keladigan juft teglar-**<TD>**, **</TD>** bilan ta'riflanadi. Agar qandaydir satr oxiriga joylashgan bitta yoki bir necha yacheykalar ma'lumotlarga ega bo'lmasalar, u holda ularning ta'rifini tushirib qoldirish mumkin bo'ladi. Brauzer esa, avtomatik ravishda talab darajada bo'sh yacheykalarni qo'shib qo'yadi. Demak, har xil satrlarda joylashgan bir xil razmerli turli xil miqdordagi ustunlarni o'z ichiga olgan jadvallarni qurish man etiladi.

Jadvalda juft teglar-**<CAPTION>** va **</CAPTION>**ga joylashtirilgan sarlavha bo'lishi mumkin. Jadval sarlavhasining ta'rifi **<TABLE>** va **</TABLE>** teglari ichki qismining istagan joyida bo'lishi mumkin. Lekin, istagan **<TD>** va **<TH>** yoki **<TR>** teglari ta'rifidan tashqarida joylashishi kerak.Sanab o'tilgan teglar son va moxiyati har xil parametrlarga ega bo'lishi mumkin. Lekin eng oddiy holatda ular (po umalchaniyu) indamaslik bo'yicha qiymat qabul qiladigan parametrlarsiz ishlatiladi.

Jadval tegi formati (shakli):



Jadval ichidagi ma'lumotlarni formatlash

Jadval ichidagi har bir alohida yacheykani mustaqil formatlash uchun ajratilgan o'rin deb hisoblash mumkin. Matnni aks ettirishni boshqarishdagi barcha qoidalar yacheyka ichidagi matnni formatlashda ishlatilishi mumkin. Yacheyka ichida <BODY> hujjati tegi ichida paydo bo'lib qoladigan HTMLning hamma elementlarini ishlatish mumkin. SHu jumladan, <p>,
, <HR> matnlar joylashuvini boshqaradigan teglar; <H1> dan <H6>gacha bo'lgan sarlavha kodlari; , <I>, , <BIG>, , , simvollarni formatlash teglari; grafik tasvirni; <A> va sh.q. gipermatn aloqalarni o'rnatish teglari.

Alohida yacheykalar ichidagi teglarning ta'sir etish joyi (oblast) yakunlovchi tegning mavjudligiga qaramay, shu yacheyka imkoniyatlari bilan chegaralanadi. Masalan, yacheyka ichida matn rangi aniqlangan bo'lsa, u holda xattoki yakunlovchi kod </ FONT> yoki uning bir nechta yacheyka yoki jadval satri orqali joylashuvi bo'lmasa-da, navbatdagi yacheyka matni indamaslik rangi bilan aks ettiriladi.


Yacheykadagi qiymatlarni rostdash parametrlar–ALIGN va VALIGN. <TR>, <TD> va <TN> kodlarida qo'llanishi mumkin. Gorizontaal bo'yicha rostdash parametrlari–ALIGN. LEFT, RIGHT va CENTER esa, qiymatlarini qabul qilishi mumkin, (indamaslik bo'yicha LEFT <TD> uchun CENTER <TN> uchun). Vertikal rostdash parametri–VALIGN TOP (yuqori qirra bo'yicha), VOTTOM (pastki qirra bo'yicha), MIDDLE (markaz bo'yicha), BASELIVE (baza liniyasi bo'yicha), MIDDLE (indamaslik bo'yicha) qiymatlarini qabul qilib olishi mumkin. Baza liniyasi bo'yicha rostdash hamma yacheykalardagi alohida satr matnlarini bitta liniyaga birlashtirishni ta'minlaydi. <TR> kodi darajasida rostdash parametrlarining berilishi berilgan satrlarning barcha yacheykalari uchun rostdashni aniqlaydi. Bunda har bir alohida satr yacheykasida o'zining parametri aniqlanishi (<TR> da berilgan parametrlar harakatini qaytadan aniqlovchi) mumkin.

Misol. Bu misolda berilgan jadval ma'lumotlari birinchi ustun yacheykalarida o'ng tomonga, ikkinchi ustunda markazga, uchinchi ustunda esa, chap tomonga to'g'rilangan, (indamaslik qiymati bo'yicha):

```


1
2 <HTML>
3 <HEAD>
4 <TITLE> jadval elementlarini rostlash </TITLE>
5 <BODY>
6 <TABLE BORDER WIDTH=100%>
7 <TR><TD ALIGN=RIGHT> yacheyka 1 </TD>
8 <TD ALIGN=RIGHT> yacheyka 2 </TD><TD> yacheyka 3 </TD></TR>
9 <TR><TD ALIGN=RIGHT> yacheyka 4 </TD><TD FLIGN=RIGHT>
10 yacheyka 5 </TD>
11 <TD> yacheyka 6 </TD></TR></TABLE></BODY></HTML>

```



Murakkab jadvallar uchun bir nechta o'xshash yacheykalarni gorizontal va vertikal bo'yicha bittaga birlashtirishga zaruriyat mavjudligi ma'lum. Bu berilgan imkoniyat <TD> yoki <TH> beriladigan COLSPAN (COLUMN SPANNING) va ROWSPAN (ROW SPANNING) parametrlari yordami bilan amalga oshiriladi. YOzish formasi (shakli): COLSPAN=num; bu erda num–joriy yacheykani gorizontal bo'yicha nechta ustunga kengaytirishni ko'rsatuvchi sonli qiymat. ROWSPAN parametrlarining qo'llanilishi shu kabi bajariladi, faqat bu erda vertikal bo'yicha joriy yacheykalarni o'z ichiga olishi kerak bo'lgan satrlar miqdorini ko'rsatish kerak bo'ladi. Indamaslik bo'yicha bu parametrlar uchun birga teng bo'lgan qiymat o'rnatiladi. Bitta yacheyka uchun ikkala parametrlar qiymatini bir vaqtda berilishi mumkin.

Yacheykalarni birlashtirishga misol.:



Bir nechta satr va ustunlarga taqsimlanuvchi yacheykalar jadvali.

MS Internet Explorerda xos yana bir qancha parametrlar `<BORDERCOLOR>`, `<BORDERCOLORLIGHT>` va `<BORDERCOLORDARK>` jadvallar ramkasi rangini tanlashga imkon beradi. Bu parametrlar `<TABLE>`, `<TD>`, `<TH>` va `<TR>` teglarida berilishi mumkin. Bu parametrlarning qiymati sifatida rang nomi yoki o'noltilik sonlari ishlatilishi mumkin. `BORDERCOLOR` parametri jadval ramkasi elementlarining rangini aniqlasa, qolgan ikkita parametrlar esa, `BORDERCOLOR` qiymatini qaytadan aniqlab, ramkaning qolgan alohida qismlari uchun xizmat qiladi. Parametr `BORDERCOLORLIGHT` hamma jadvallarining chap va yuqori qirralarini mos ravishda har bir yacheykaning o'ng va pastki qirralarini ko'rsatilgan rangga bo'yaydi. Ikkinchi parametr `BORDERCOLORDARK` esa, qarama-qarshi qirralarga rang beradi. Bu ikki parametr harakatining birlashuvi oqibatida jadval sahifa satridan yuqoriroq (yoki quyiroq)da ko'rinadi. Bular barchasini tanlangan ranglar omixtasiga bog'liq.

Brauzer MS Internet Explorer (shu jumladan, Opera, FOX Mozilla bravzeri) barcha HTML hujjatlar uchun qo'llaniladigan ishlar kabi jadval rasmi fonini aniqlovchi `<BACKGROUND>` parametridan foydalanishga ruxsat beradi. Bu parametr `<TABLE>`, `<TD>`, `<TH>` va `<TR>` teglarida berilishi mumkin.

Jadvalga misolini ko'rib chiqamiz:

```

1 <HTML><HEAD><TITLE>MURAKKAB JADVAL</TITLE>
2 </HEAD><BODY><H1>Jadvalga misoli</H1>
3 <TABLE BORDER=2 CELLSPACING=0 CELLPADDING=0>
4 <CAPTION ALIGN=TOP><H3>Talabalar ro'yxati</H3></CAPTION>
5 <TR><TD></TD><TH>ba'yi</TH><TH>yoshi</TH></TR>
6 <TR><TH>Amreeva F</TH><TD>175</TD><TD>21</TD></TR>
7 <TR><TH>Naoriddinov D</TH><TD>170</TD><TD>23</TD></TR>
8 <TR><TH>Hamidov K</TH><TD>169</TD><TD>19</TD></TR>
9 <TR><TH>Karimova L</TH><TD>171</TD><TD>20</TD></TR>
10 <TR><TH>Salimov A</TH><TD>163</TD><TD>22</TD></TR>
11 </TABLE></BODY></HTML>

```



Muhokama uchun savollar

4-

ilova

1. Jadval tegi qanday ifodalanadi?
2. Jadval ustun vasatrlari qaysi teglar yodamida hosil qilinadi?
3. Yacheykalarni birlashtiruvchi teglar?

1. B/B/B jadvali

5-ilova

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim



Mustaqil bajariush uchun vazifalar: 5-ilova

1. Web sahida dars jadvali yartaing
2. Dekabr oyi uchun kalendar yarating.
3. Yillik bayramlar jadvalini hosil qiling
4. 2dan 10 gacha bo'lgan sonlar kvadratini ifodalovchi jadval tuzing

M a v z u : HTML da rasmlar hosil qilish teglari. Rasmlar atrofiga matnlar va

jadvallar joylashtirish. Rasmlarga gipermurojaat qo'yish.
MA'RUZA DARSINI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni:	50-60 talaba
Vaqt:	2-soat
Dars shakli	Mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi:	1. HTML da rasmlar hosil qilish teglari. 2. Rasmlar atrofiga matnlar va jadvallar joylashtirish. 3. Rasmlarga gipermurojaat qo'yish.
Darsning maqsadi: Talabalarda HTMLda rasmlar hosil haqida tushuncha hosil qilish.	
Pedagog vazifalari: HTML da rasmlar hosil qilish teglari. Rasmlar atrofiga matnlar va jadvallar joylashtirish. Rasmlarga gipermurojat qo'yish haqida tushuncha beradi.	O'quv natijalari: • HTML da rasmlar hosil qilish teglari. • Rasmlar atrofiga matnlar va jadvallar joylashtirish. • Rasmlarga gipermurojat qo'yish. teglari.haqida bilib oladi . • Mustaqil Web sahifalar yaratadi.
O'qitishning usul, texnikasi:	Ma'ruza, suxbat, baxs-munozara muhokama qilish, fikr almashish
O'qitish vositalari:	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar
O'qitish shakli:	Frontal
O'qitish shart sharoitlari:	Texnik vositalarni qo'llashga mo'ljallangan auditoriya. Proektor
Monitoring va baholash:	Og'zaki so'roq, savol-javob, tahlil natijalari.

HTML da rasmlar hosil qilish teglari. Rasmlar atrofiga matnlar va jadvallar joylashtirish. Rasmlarga gipermurojat qo'yish mavzusidagi


MA'RUZA DARSIGA TEXNOLOGIK KARTA

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich. Kirish (25 daqiqa)	1.1. O'tilgan mavzu yuzasidan talabalar bilimini Klaster texnologiyasi yordamida tekshiradi.(1-ilova) 1.2. Mavzuni e'lon qiladi, ma'ruza rejasi, tayanch so'z va iboralar tanishtiradi. (2-ilova)	Eshitadilar va kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.

2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1.Mavzu rejalari asosida bayon etiladi (3-ilova) Jarayon komp'yuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi. 2.2. WEB sahifa yaratishga misol (4-ilova)	Eshitadilar va yo'zib oladilar
3-bosqich Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1. Talabalarga savollar bilan murojat etadi Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytib o'tadi 3.2. Talabalarning dars davomidagi faoliyatini tahlil etadi va baholaydi.	Savollarga javob beradilar Mustaqil ishlashlarni bajaradi

WEB sahifa da jadval yaratish mavzu sida talabalar bilimni Klaster texnologiyasi yordamida tekshirish

ogiyasi yordamida tekshirish



2-ilova




MAVZU: HTML da rasmlar hosil qilish teglari. Rasmlar atrofiga matnlar va jadvallar joylashtirish. Rasmlar o'zining murojat ko'rsatish

Ma'ruza rejasi

1. HTML da rasmlar hosil qilish teglari.
2. Rasmlar atrofiga matnlar va jadvallar joylashtirish.

Tayanch so'z va iboralar

Grafik tasviti, rasm teglari, bo'yi, eni, joylashishi, gipermurojat ,



Grafik tasvirlar Web-sahifaga yakka tegi yordamida qo'yiladi. Quyida uni formati keltirildi:

```
<IMG SRC = "{tasvir fayli adresi va tipi}">  
<WIDTH= "{eni}">  
<HEIGHT= "{Balandlik}">  
<ACT= "{Alternativ matn}">  
<BORDER = "{CHegara qalinligi}">  
<ALIGN= "left / riht /top /texttop/ middle /alsmiddle/ /baseline/ botton/ absbotton">  
<VSPACE = "{Vertikal bo'yicha sahifa matnigacha masofa}">  
<HSPACE = "{Gorizontal bo'yicha sahifa matnigacha masofa}">
```

Ko'rinib turibdiki, bu tegda juda ko'p atributlar bor ekan. Bu IMG (Image) so'zi tasvirni izohlaydi. Atributlar ichida SRC (source-manba) majburiy atribut hisoblandi. Bu adres o'ziga Web-server adresini qabul qilaoladigan (agar fayl boshqa serverda bo'lsa) to'liq va qisqartirilgan (faqat fayl nomlaridan iborat) ko'rinishida bo'lishi mumkin.

```
<IMG SRC = www.tsue.uz /sample /first1.gif>  
<IMG SRC = "/folder 1/folder 2/first2.gif">
```

ALT-atributi «alternativ matn» deb ataladigan grafik obraz paydo bo'lishi lozim bo'lgan matn satrini beradi. Bundan maqsad shuki, sahifaning kerakli joyini tezroq aniqlash uchun, foydalanuvchi brauzerdagi grafik tasvir ko'rsatuvchini o'chirib qo'yishi mumkin. Natijada, sahifadagi grafika o'rnida bo'sh joy aks etadi. SHuning uchun bu bo'sh joydan unumli foydalanish yo'llarini o'ylab qo'yish kerak bo'ladi.

Border atributi tasvir atrofidagi (qalinligini beradigan piksellarda).

ALIGN atributi tasvirning nisbiy egallab turgan joyini boshqarish imkoniyatini yaratib beradi.

U quyidagi ahamiyatga ega:

–**left**–tasvir chapga suriladi, matn esa uning o'ng tomonidan aylanib o'tadi.

–**riht**–tasvir o'ngga suriladi, matn esa uning chap tomonidan o'tadi.

–**top**–tasvir joriy satrning yuqorisiga to'g'rilanadi.

–**texttop**–tasvir joriy satrning eng baland simvol cho'qqisiga to'g'rilanadi.

–**middle**–tasvir markazi joriy satrning bazaviy chizig'iga to'g'rilanadi.

–**avsmiddle**–tasvir markazi joriy satr markaziga aniq to'g'rilanadi.

–**baseline**–tasvirning pastki qirradi joriy satr bazaviy chizig'iga to'g'rilanadi.

–**botton**–tasvirning pastki qirradi joriy satr quyi qismiga to'g'riladi.

–**absbotton**–tasvirning quyi qirradi joriy satr eng quyi qismidagi simvolning quyi qismiga

Giperaloqa (giperssылka)ning ikki qismdan iborat. Uning birinchi qismini ssылka ko'rsatkichi (anchor), brauzerga instruktsiya beradigan ikkinchi qismi esa, ssылkaning adres qismi (URL–adres) deyiladi. Agar foydalanuvchi sichqoncha kursorini ssылka ko'rsatkichiga olib kelsa, u holda u ko'rsatuvchi belgiga aylanadi, (giperaloqaning birinchi belgisi). Foydalanuvchi ssылka ko'rsatkichi bo'yicha chiqillatib ssылka havola qilinayotgan hujjatni oladi.

Aloqa ko'rsatkichi so'z, so'zlar guruhi yoki tasvir bo'lishi mumkin. Aloqatashqi ko'rinishi uning xiliga, yaratish usuliga va brauzer ko'rib chiqish dasturining qo'yilishiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatkichlarning matnli va grafikli xillari mavjud.

Matn ko'rsatkichlari bir yoki bir necha so'zlardan iborat bo'lib, so'z ostiga chizish bilan ajralib turadi. Ko'rsatkich rangini muallif va ko'rib chiqish dasturining qo'yilishi boshqarib boradi. Ssılka matn ko'rsatkichining yozilishi quyidagi misolda ko'rsatilgan:

< A HREF= «sample. html»> bu matn ssılka ko'rsatkichi hisoblanadi.

Aloqa sifatida grafik tasvirlardan ham foydalanish mumkin. Grafik ssılkalari harakat qilish printsipli bo'yicha matn ssılkalariidan hech qanday farqlanmaydi. Ular tagiga chizilmaydi va ranglari ajralib turmaydi. Brauzerning ajralib ko'rinishi uchun, odatda tasvir atrofiga ramka rasmi chiziladi. Aloqa grafik ko'rsatkichi uchun misol:

< A HREF="1.jpg">

Misol.

4-ilova

<HTML><HEAD> Tasvirli sahifaga misoli </TITLE></HEAD><BODY>

1. <p> < IMG SRC = "1.jpg" ALIGN= "left" >
2. <p> < IMG SRC = "2.jpg" ALIGN= "right " >
3. <p> < IMG SRC = "3.jpg" ALIGN= "top">
4. <p> < IMG SRC = "4.jpg" ALIGN= "texttop ">
5. <p> < IMG SRC = "5.jpg" ALIGN= "middle ">

1. Web sahifada rasmlar qo'yish qaysi teg orqali amalga oshiriladi?

2. Qanday tilda rasmlar Web sahifaga o'rnatilgan?

M a v z u : HTML ga gipermatn joylashtirish teglari. Gipermatn turlari, atributlari.

Gipermatnli mundarija hosil qilish.

MA'RUZA DARSINI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni:	50-60 talaba
Vaqt:	2-soat
Dars shakli	Mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi:	1. HTML ga gipermatn joylashtirish teglari. 2. Gipermatn turlari, atributlari. 3. Gipermatnli mundarija hosil qilish.
Darsning maqsadi: Talabalarda HTMLda gipermatn hosil haqida tushuncha hosil qilish.	
Pedagog vazifalari:	O'quv natijalari:
HTML ga gipermatn joylashtirish teglari. Gipermatn turlari,	• HTML ga gipermatn joylashtirish teglari. • Gipermatn turlari, atributlari. • Gipermatnli mundarija hosil qilish teglari.haqida bilib

atributlari. Gipermatnli mundarija hosil qilish. gipermurojat qo'yish. haqida tushuncha beradi.	oladi . • Mustaqil Web sahifalar yaratadi.
O'qitishning usul, texnikasi:	Ma'ruza, suxbat, baxs-munozara muhokama qilish, fikr almashish
O'qitish vositalari:	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar
O'qitish shakli:	Frontal
O'qitish shart sharoitlari:	Texnik vositalarni qo'llashga mo'ljallangan auditoriya. Proektor
Monitoring va baholash:	Og'zaki so'roq, savol-javob, tahlil natijalari.

HTML ga gipermatn joylashtirish teglari. Gipermatn turlari, atributlari.

Gipermatnli mundarija hosil qilish mavzusidagi

MA'RUZA DARSIGA TEXNOLOGIK KARTA

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich. Kirish (25 daqiqa)	1.1. Mavzuni e'lon qiladi, ma'ruza rejasi, tayanch so'z va iboralar tanishtiradi. (1-ilova)	Eshitadilar va kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Mavzu rejalari asosida bayon etiladi (2-ilova) Jarayon komp'yuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi. 2.2. WEB sahifa yaratishga misol (3-ilova)	Eshitadilar va yozib oladilar
3-bosqich Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1. Talabalarga savollar bilan murojat etadi Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytib o'tadi 3.2. Talabalarining dars davomidagi faoliyatini tahlil etadi va baholaydi.	Savollarga javob beradilar Mustaqil ishlashlarni bajaradi

MAVZU: HTML ga gipermatn joylashtirish teglari. Gipermatn turlari, atributlari. Gipermatnli mundarija hosil qilish

**REJA:**

1. HTML ga gipermatn joylashtirish teglari.
2. Gipermatn turlari, atributlari.
3. Gipermatnli mundarija hosil qilish

Tayanch so'z va iboralar

Gipermurojat, gipermatn, gipermatli hujjat, atributlar

Mavzu bayoni : HTML ga gipermatn joylashtirish teglari.

2-ilova

Web sahifaga murojaatlarni joylashtirish ikki turda bo'ladi (bir-biriga o'xshash). Dastlab mahalliy hujjatlarga murojaat qilishni ko'rib chiqamiz. Mahalliy hujjat bu shunday hujjatki sizning uy sahifangiz internetning qaysi joyida joylashgan bo'lsa u ham shu erda joylashgan bo'ladi. Mahalliy hujjatlarga murojaat qilish oson va bunda siz to'liq URL ni bilishingiz shart emas, faqat faylga yo'l va uning nomini bersangiz kifoya. So'ngra siz WWW ning hoxlagan joyidagi hujjatlarga murojaat qilishni o'rganasiz. Bu turdagi murojaatda sizdan to'liq URL talab qilinadi.

Faraz qilaylik sizda bitta hujjat uchun ma'lumot ko'p va siz uni bir necha HTML fayllarga bo'lishga qaror kildingiz. U holda asosiy Web-sahifada bu hujjatning har biriga to'liq va oson o'tuvchi murojaatlarni joylashtirish kerak bo'ladi.

Hatto siz asosiy Web-sahifangizni mundarija ko'rinishida qilishingiz mumkin va bunda alohida sahifalarga murojaat qilinadi.

Dastlab `<a href>` tegi kiritiladi. `<a>` teg o'zag teg deb nomlanadi. U Web-sahifalarga murojaat uchun ishlatiladi. `href` kalit so'zi brauzerga siz murojaat qilayotganingiz haqida xabar beradi. `</a>` yopiluvchi tegini esdan chiqarmay yozib ketish kerak. *misol.htm* fayliga murojaatlarni yaratish uchun quyidagi kodni kiritishingiz kerak:

```
<a href="misol.htm"> Misolni ko'rish </a>
```

SHunday qilib «*Misolni ko'rish*» iborasi ekranda murojaat matni ko'rinishida paydo bo'ladi.

Bu matnga sichqoncha bilan turtsangiz, *misol.htm* faylini ochiladi.

Faylga yo'lni ko'rsatishni esdan chiqarmaganingizni tekshirib ko'ring. Masalan, *tiger.htm* fayli *Exhibits* direktoriyasida saqlangan bo'lsa, `href` kalit so'zida *exhibits/tigers*. `<a href="exhibits/tigers.htm">` O tigrak `</a>`

Gipermatn turlari, atributlari.

WWW ning hoxlagan joyiga murojaat. Boshqa bir Web uzalga murojaat qilish uchun hujjatning to'liq URLi talab qilinadi. Lekin murojaatning bu turi ham shunday tarzda, ya'ni `<a href>` va `</a>` kabi bo'ladi. URL hamisha `http://` bilan boshlanadi. SHu tarzda brauzer hujjatni sizning Web uzelingizdan emas WWW dan qidirib boshlaydi. URL ning qolgan qismlari siz izlayotgan hujjatning nomi va internetdagi yo'li, uzelidan iborat bo'ladi:

` yahoo olami ruyxati
`

Murojaat rangi.

World Wide Web dagi murojaat matnining rangini o'zgartirishingiz mumkin. Sizning Web sahifangizning matnini rangini *body* tegi yordamida o'rnatish mumkin: `<body next=red>`

SHu tarzda gipermurojaat matnining rangini ham boshqarish mumkin. Quyida 3 ta yangi kalit so'z keltirilgan:

link - *link* kalit so'zi *Text* kabi ishlatiladi. *link=blue* o'rnatilgan bo'lsa (yoki boshqa bir rang), foydalanuvchi hali ishlatmagan (sichqoncha bilan turtmagan) murojaatlar ko'k rangda bo'ladi.

`<body text=red link=blue>`

vlink - Ayrim hollarda bir necha murojaatlarning rangi boshqalaridan ajralib turganini sezgan bo'lishingiz mumkin. Bu murojaat siz tomoningizdan faollashtirilganligidan dalolat beradi. Foydalanuvchi murojaat qilgan murojaatlarning rangini (Visited line) *vlink* kalit so'zi bilan o'zgartirish mumkin. Murojaatning rangini ochiq ko'k rangga o'zgartirish uchun quyidagi kodda yozish kerak:

`<body text="line" link="aqua" vlink="silver">`

alink - Murojaatga sichqoncha bilan turtgan paytdagi rangni o'zgartirish mumkin. Murojaatning faol rangi *alink* kalit so'zi yordamida beriladi. Kimdir sizning sahifangizga kirganida murojaat rangi *link* bilan berilgan rangda bo'ladi. Lekin qachonki siz uni sichqoncha bilan turtasangiz qisqa vaqtgacha *alink* bilan berilgan rangga o'tadi.

Quyida faol murojaatning rangini ochiq sariq rangga o'zgartiramiz:

`<body text="line" link="aqua" vlink="silver" alink="yellow">`

Gipermatnli mundarija hosil qilish

Tasvirlarni murojaat sifatida ishlatish. WWW-sahifalarda murojaat vositasi bo'lib faqat matn emas, balki tasvirlar ham ishlatiladi. Bu shuni bildiradiki, qachonki siz tasvirlarni sichqoncha bilan turtasangiz ekranda boshqa Web-hujjat paydo bo'ladi.

Boshqa HTML - hujjatga tasvir yordamida murojaat qilish uchun xuddi matn singari bo'ladi. Faqat bunda matn o'rniga tasvirni berishingiz kerak. Jimlik xolatida Web-brauzerlar tasvir murojaatni ko'k ramka bilan o'rab oladi. Tasvirning hoxlagan joyiga sichqoncha bilan turtish orqali mos hujjatga o'tiladi. Murojaat sifatida tasvirlarning hoxlagan turi, rasmlar va piktogrammalardan foydalanish mumkin. (fon bezaklaridan tashqari).

Maslahat tasvirlar murojaat sifatida tez-tez ishlatiladi. Iloji boricha tushunarli tasvirlardan foydalaning, shunda foydalanuvchilar murojaat ularni qanday manzilga olib borishni tushunadilar.

Masalan, agar siz uy sahifangizda sevimli qo'shiqlaringiz ro'yxatiga murojaat qilmoqchi bo'lsangiz, musiqaga doir piktogrammadan foydalaning. Tasvir murojaatlaridan foydalanganda alternativ matn berish zarur. Tasvir ko'rinmay qolganda foydalanuvchilar shu orqali murojaatdan foydalanishlari mumkin. Ayrim foydalanuvchilarda tasvirni yuklash ko'p vaqtni talab qiladi. Ular uchun alternativ matn juda zarur, ana shunda ular nima ko'rishlarini bilib oladilar. Ixtiyoriy bir tasvirga murojaat chiqarish uchun quyidagicha kodni kiritamiz:

`<a href="http://www.mep.com/que/">`

` </a>`

Bu matn o'rniga `<img>` tegini kiritganimizga e'tiboringizni karating. Shu tariqa grafik murojaat berish mumkin.

```

<HTML> <BODY>
<P align="center">
Salomat.uz sayti </p>
<a href="index.html">Asosiy</a>
<a href="bo'lim.html">Davolash bo'limlari</a>
<a href="about.html">Biz haqida</a>
<a href="xabar.html">Bog'lanish</a>
</HTML>

```



Mustaqil bajarish uchun vazifa

1. “O‘zbekiston Vatanim manim” nomli Web sahifa yarating. Giper murojat o‘rnatish.
2. “Prezident asrlari” nomli Web sahifa yarating.

M a v z u : Freymalar tashkil qilish. Freymalar hosil qilish va ularni qayta ishlash.

MA’RUZA DARSINI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni:	50-60 talaba
Vaqt:	2-soat
Dars shakli	Mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi:	1. Freymalar tashkil qilish. 2. Freymalar hosil qilish va ularni qayta ishlash.
Darsning maqsadi:	Talabalarda HTMLda freymalar hosil haqida tushuncha hosil qilish.
Pedagog vazifalari:	O'quv natijalari:

HTML da Freymalar tashkil qilish. Freymalar hosil qilish va ularni qayta ishlash qo'yish. haqida tushuncha beradi.	• Freymalar tashkil qilish. • Freymalar hosil qilish va ularni qayta ishlash haqida bilib oladi . • Mustaqil Web sahifalar yaratadi.
O'qitishning usul, texnikasi:	Ma'ruza, suxbat, baxs-munozara muhokama qilish, mustaqil ta'lim
O'qitish vositalari:	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar
O'qitish shakli:	Frontal
O'qitish shart sharoitlari:	Texnik vositalarni qo'llashga mo'ljallangan auditoriya. Proektor
Monitoring va baholash:	Og'zaki so'roq, savol-javob, tahlil natijalari.

**Freymalar tashkil qilish. Freymalar hosil qilish va ularni qayta ishlash mavzusidagi
MA'RUZA DARSIGA TEXNOLOGIK KARTA**

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich. Kirish (25 daqiqa)	1.1. Mavzuni e'lon qiladi, ma'ruza rejasi, tayanch so'z va iboralar tanishtiradi. (1-ilova)	Eshitadilar va kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1.Mavzu rejalari asosida bayon etiladi (2-ilova) Jarayon komp'yuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi. 2.2. WEB sahifa yaratishga misol (3-ilova)	Eshitadilar va yozib oladilar
3-bosqich Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1. Talabalarga savollar bilan murojat etadi Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytib o'tadi 3.2. Talabalarning dars davomidagi faoliyatini tahlil etadi va baholaydi.	Savollarga javob beradilar Mustaqil ishlashlarni bajaradi

MAVZU: Freymalar tashkil qilish. Freymalar hosil qilish va ularni qayta ishlash.

ilova



REJA:

1. Freymlar tashkil qilish.

2. Freymlar hosil qilish va ularni saqlash.

Tayanch soʻz va iboralar

Freymlar ,formalar hujjat, atributlar

Mavzu bayoni

2-ilova

Biz bitta oynani bir nechta toʻgʻri toʻrtburchaklarga boʻlib ularning har biriga bitta HTML hujjat yuklashimiz mumkin. Bu toʻgʻri toʻrtburchak sohalarni biz freymlar deb ataymiz. HTML da freymlarning ikki xil koʻrinishi mavjud boʻlib bular oddiy va suriluvchi freymlardir. Freymli strukturaga ega boʻlgan hujjatlar `<frameset>` va `</frameset>` teglari yordamida yaratiladi. Bu ikki teg orasida hosil qilinayotgan alohida freymlarga oid maʼlumotlar eʼlon qilinadi. Alohida freymlar `<frame>` va `</frame>` teglar yordamida yaratiladi. Agar sizning brauzeringiz freymlarni tushunmasa u holda ekranda `<noframes>` va `</noframes>` teglari orasida yozilgan maʼlumot tasvirlanadi.

`<frameset>` tegining asosiy vazifasi brauzer oynasini bir nechta boʻlaklarga boʻlish. Buning uchun asosan vertikal va gorizantal boʻyicha freymlar oʻlchami va sonini koʻrsatib turuvchi `rows` va `cols` parametrlari ishlatiladi.

- `cols` parametri brauzer oynasida gorizantal boʻyicha freymlar soni va oʻlchamini koʻrsatadi. Parametr qiymati sifatida vergullar bilan ajratilgan freymlar oʻlchamlari roʻyxati keltiriladi. oʻlchamlar odatdagidek sonlarda yoki protsentlarda beriladi. Jimlik boʻyicha 100% qiymat ishlatiladi.

- `rows` parametri brauzer oynasida vertikal boʻyicha freymlar soni va oʻlchamini koʻrsatadi. Parametrga qiymat berish `cols` parametri bilan bir xil boʻladi.

Misol: 1

```
<html>
```

```
<head><title>Freymlar</title></head>
```

```
<frameset cols="150,*">
```


```
<frame src="9_1_1.htm">
```

```
<frame src="9_1_2.htm">
```

```
<noframes><p>afsuski sizning brauzeringiz freymlarni tushinmaydi. Brauzerning yangi versiyalaridan foydalaning</p>
```

```
</noframes>
```

```
</frameset> </html>
```



Diqqat bilan HTML kodni va uning ekranda chiqargan natijasini tahlil qilish natijasidan ko'rinadiki, bu erda `<body>` va `</body>` teglari ishlatilmagan. Bu teglar orasida ekranda hosil qilinishi kerak bo'lgan barcha asosiy ma'lumotlar yoziladi, `<frameset>` tegi bo'lsa brauzerga oynani freymlarga ajratish haqida ma'lumot beradi. YUqoridagi misolda biz `cols` parametrini ikkita qiymati bilan ishlatdik. Bu qiymatda birinchi freym uchun 150 piksel joy ikkinchi freym uchun esa qolgan joyning hammasi ishlatilishi ko'rsatilgan. Misolda ko'rganimizdek `<frame>` teglari har bir freymni alohida e'lon qiladi va ularning xossalarini ko'rsatadi. Misolimizda biz qiymat sifatida html hujjatning manzilini qabul kiluvchi `src` paramerini ishlatdik. Bundan tashqari biz `<noframes>` va `</noframes>` teglarini ham ishlatdik. Bu teglar orasida yozilgan ma'lumot brauzer tomonidan freym texnologiyasi tushunilmagan holatda ekranda paydo bo'ladi. Berilgan o'lchamda bo'lingan freymlar chegarasini foydalanuchi tomonidan o'zgartirish imkoniyati mavjud. Buning uchun *splitter* deb nomlanuvchi chegara chizig'idan sichqoncha ko'rsatkichi bilan ushlab surish kifoya. Asosiy brauzer oynasini bitta ustunda joylashgan ikkita freym va qolgan joyni egallovchi uchinchi freym ko'rinishida bo'lishimiz uchun kuydagi html kodni yozishimiz kerak.

Misol

```
<html>
```

```
<head><title>uchta freym</title></head>
```

```
<frameset cols="20%,*">
```

```
<frameset rows="*,*">
```

```
<frame src="9_1_1.htm">
```


```
<frame src="9_1_2.htm">
```

```
</frameset>
```

```
<frame src="9_1_3.htm">
```

```
</frameset>
```

```
</html>
```



Frame tegi va uning parametrlari.

`<frame>` tegi alohida freymlar xossalarini o'rnatish uchun ishlatiladi. Endi biz `<frame>` tegida ishlatiladigan parametrlar bilan tanishib chiqamiz.

- *name* parametri freymning nomini ko'rsatishda ishlatiladi, buni *id* parametri bilan almashtirmaslik kerak. *pame* parametri yordamida berilgan nom o'zak freymdan tashqarida joylashgan boshqa bir hujjatni yuklaganda teglarda gipermurojaat sifatida ishlatiladi.
- *src* parametri freymda tasvirlanishi kerak bo'lgan HTML hujjatning URL ini berishda ishlatiladi.
- *frameborder* parametri freym chegara hoshiyalarining bo'lish yoki bo'lmasligini ko'rsatadi. Parametr qiymati 0 yoki 1 sonlari bo'lishi mumkin. Jimlik bo'yicha parametr 1 qiymat qabul qiladi va freym chegara hoshiyasi ko'rinuvchi bo'ladi. Agar qiymat 0 freym chegarasi hoshiyasi ko'rinmaydi.
- *marginwidth* parametri freymning gorizontal bo'yicha o'lchamini piksellarda beradi.
- *marginheight* parametri freymning vertikal bo'yicha o'lchamini piksellarda beradi.
- *noresize* parametri freym o'lchamlarining o'zgarmasligini ta'minlaydi. Agar biz bu parametрни qo'llasak foydalanuvchi tomonidan freym chegaralarini o'zgartirish imkoni bo'lmaydi. Bu parametrda qiymat yo'q.
- *scrolling* parametri foydalanuvchiga freymdagi o'tkazish yo'lakchasi (lineyka prokrutki)ni boshqarish imkonini beradi. Qiymat sifatida quyidagi *auto*, *yes*, *no* kalit so'zlaridan bittasini qabul qiladi. Jimlik bo'yicha *auto* qiymati qabul qilingan bo'ladi, bu esa freymdagi ma'lumotlar tasvirlanish sohasiga joylashmagan vaqtda utkazish yulakchasi paydo bo'lishini bildiradi. *yes* qiymati esa freymdagi ma'lumot tasvirlanish sohasiga sig'ishi yoki sig'masligidan qat'iy nazar o'tkazish yo'lakchasi doimo chiqib turishini bildiradi. *no* qiymati esa freymda o'tkazish yo'lakchasining chiqishini umuman taqiqlaydi.


Biz yuqoridagi misollarimizda freymlar brauzer oynasini alohida bo'laklarga to'liq bo'lganini ko'rdik. Lekin freymarning shunday turi ham mavjudki, ularni HTML hujjatga xuddi grafik tasvir joylashtirganday joylashtirish mumkin. Bunday turdagi freymnlarni HTML hujjatga joylash uchun `<iframe>` tegi ishlatiladi. Grafik ob'ekt joylashtirish tegidan farqli ravishda bu teg o'zining yopiluvchi `</iframe>` tegiga ega.

3-ilova

Misol 3:

`<html>`

```
<head><title>Freymlar</title>
</head>
<body>
<p>Matn va <iframe src="9_3.htm"></iframe>freym</p>
</body></html>
```



Muhokama uchun savollar

4-

ilova

1. Freym tegi qanday ifodalanadi?
2. Gorizantal va vertikal freym qaysi teglar yodamida hosil qilinadi?
3. Grafik ob'ektlarni freymlarga qanday joylashtiriladi

Mustaqil ta'lim

4-

ilova

1. "Bizning Unversitet" mavzusida Web sahifa yarating.Freymlaga ajrating .



M a v z u :Formalar tashkil qilish va ularni qayta ishlash. Sahifalarda animasiyalar hosil qilish. MA'RUZA DARSINI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni:	50-60 talaba
Vaqt:	2-soat
Dars shakli	Mavzu bo'yicha ma'ruza

Ma'ruza rejasi:	1. Formalar tashkil qilish va ularni qayta ishlash. 2. Sahifalarda animasiyalar hosil qilish.
Darsning maqsadi: Talabalarda HTMLda formalar haqida tushuncha hosil qilish.	
Pedagog vazifalari: HTML da Formalar tashkil qilish va ularni qayta ishlash. Sahifalarda animasiyalar hosil qilish haqida tushuncha beradi.	O'quv natijalari: - Formalar tashkil qilish va ularni qayta ishlash. - Sahifalarda animasiyalar hosil qilish haqida bilib oladi - Mustaqil Web sahifalar yaratadi.
O'qitishning usul, texnikasi:	Ma'ruza, suxbat, baxs-munozara muhokama qilish, mustaqil ta'lim
O'qitish vositalari:	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar
O'qitish shakli:	Frontal
O'qitish shart sharoitlari:	Texnik vositalarni qo'llashga mo'ljallangan auditoriya. Proektor
Monitoring va baholash:	Og'zaki so'roq, savol-javob, tahlil natijalari.

Formalar tashkil qilish va ularni qayta ishlash. Sahifalarda animasiyalar hosil qilish
mavzusidagi

MA'RUZA DARSIGA TEXNOLOGIK KARTA

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich. Kirish (25 daqiqa)	1.1. Mavzuni e'lon qiladi, ma'ruza rejasi, tayanch so'z va iboralar tanishtiradi. (1-ilova)	Eshitadilar va kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Mavzu rejalari asosida bayon etiladi (2-ilova) Jarayon komp'yuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi. 2.2. WEB sahifa yaratishga misol (3-ilova)	Eshitadilar va yozib oladilar
3-bosqich Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1. Talabalarga savollar bilan murojat etadi Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytib o'tadi 3.2. Talabalarning dars davomidagi faoliyatini tahlil etadi va baholaydi.	Savollarga javob beradilar Mustaqil ishlashlarni bajaradi



MAVZU: Formalar tashkil qilish va ularni qayta ishlash. Sahifalarda animasiyalar hosil qilish.

1-ilova

REJA:

- 1. Formalar tashkil qilish va ularni qayta ishlash.**
- 2. Sahifalarda animasiyalar hosil qilish**

Tayanch so'z va iboralar

Freymlar , formalar hujjat, atributlar, animatsiya, xarakat

Mavzu bayoni

HTML–formalar ma'lumotlarni uzoqdagi foydalanuvchidan Web–serverga havola etish uchun mo'ljallangan. Ular yordamida foydalanuvchi bilan server o'rtasida oddiy muloqot tashkil qilish mumkin. Masalan, foydalanuvchini serverda qayd qilish, taqdim qilingan ro'yxatdan kerakli hujjatni tanlab olish yoki Web–sahifangizdan to'ppa-to'g'ri elektron pochta jo'natish. Buning uchun brauzerlar o'rnatilgan funktsiyaga egadirlar. Sizga yagona bitta ish qoladi–bu HTML–faylning kerakli joyiga navbatdagi satrni qo'yishdir.

`<AHREF = mailto : Sizning–l–mail–adres> brauzer uchun matn </A>`

Sizning E– mail–adres so'zi o'rniga haqiqiy elektron pochta adresini yozing. Brauzer uchun matn esa, ekranda yorug' rang bilan ajralib turadi. Sichqoncha kursori uni egallagach, u qo'l ko'rinishida ko'rinib, sichqonchani chiqillatishga taklif qilgandek bo'ladi. CHiqillatilgach, elektron pochta standart formasi yuklanadi.

Lekin, qaror qabul uchun mijozdan konkret axborot olish zarur. Unga savol berib va javob uchun joy ajratib, bu ishni bajarish mumkin. Javoblar erkin matn ko'rinishida ham, belgilangan kvadrat ko'rinishida ham taqdim etilishi mumkin. Formalar javoblar turini har xil ko'rinishda ifodalashga imkon beradi. Eng asosiysi–qo'yilgan savolga konkret javob olishdir. Bunday sistemalash kelajakda olingan ma'lumotlarni kompyuter yordamida qayta ishlashni ta'minlashi mumkin.

Demak, har bir anketa `<FORM>` va `</FORM>` tegi bilan ramkaga solinadi. Bu teg ichida ikkita atribut (parametr) mavjud–`METHOD` va `ACTION`. Birinchisi, berilgan forma navbatdagi ish yuritish ishlariga uzatish uslublarini aniqlaydi va ikkita qiymatga ega bo'ladi: `POST` va `GET`. `ACTION` atributi esa, anketa bilan bundan keyin nima ish qilish kerakligini aniqlaydi va ko'p hollarda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

`<mailto : Sizning–E– mail–adres>`

Bunda siz, elektron pochta orqali jo'natilgan anketani olasiz. Anketa alohida fayl sifatida keladi va sizdan qaysi direktoriy va qanday nom bilan yuklanishini so'raydi.

Forma <INPUT> va <SELECT> teglari yig'indisidan iborat. Ular mijoz tomonidan kiritilgan axborotning uslubini aniqlaydi. Quyidagi misolda teg <INPUT> strukturasini (mos atributlar bilan) ko'rib chiqamiz:

<INPUT TYPE= "TEXT" NAME = «Mijoz nomi» SIZE = "30">

TYPE instruktsiyasining TEXT qiymati kiritiladigan axborot erkin matn bo'lishini, NAME instruktsiyasi esa, kiritilajak uslub nomiga tegishli ekanligini ko'rsatadi.

SIZE (razmer) mijoz o'z nomini kirita oladigan maydonning maksimal uzunligini aniqlaydi.

Navbatdagi jadval javoblarning ba'zi bir uslublarini namoyish qiladi:


INPUT qiymati	Mos uslub (stil)
TEXT	Matnli maydon
RADIO	Selektor tugmasi
CHECKBOX	Nazorat indikator
SUBMIT	Anketani jo'natish tugmasi
RESET	Anketani tozalash tugmasi

Teg <SELECT> mijoz taklif qilinayotgan ro'yxatdan so'zni (yoki so'zlar yig'indisi) tanlash paytidagi javob uslubini aniqlaydi.

Teg <TEXTAREA> forma ichida ko'p satri matnni kiritish uchun maydon yaratadi. Bu maydon brauzer darchasida gorizonta va vertika aylantirish tasmasi bilan to'g'ri burchak ko'rinishida aks etadi,

Misol.

```
<html>      <head>
      <title>Formalarga doir misol</title>
</head>      <body>
<form action="http://maks//cgi/person.exe" method="post">
<p>      <label for="firstname"> ism: </label>
<input type="text" id="firstname">
<br><label for="lastname"> familiya: </label>
<input type="text" id="lastname">
<br><label for="email"> e-mail: </label>
<input type="text" id="mail">
<br><input type="radio" name="sex" value="male" checked="checked "> erkak <br>
<input type="radio" name="sex" value="femole"> ayol <br>
<input type="submit" value="send">
<input type="reset" value="Reset">
</p> </form> </body> </html>
```



Ahamiyat bergan bo'lsangiz, ba'zi bir web sahifalarda yozuvlar, u joydan - bu joyga yuradi, shuni qanday qilish mumkin? Bizga <MARQUEE> tagi yordam beradi. HTML tilida hujjatdagi matnni harakatga keltirish uchun <marquee> tegidan foydalanishimiz mumkin. "Marquee" tegi veb sahifa dizaynida keng foydalaniladi va foydalanuvchilarni o'ziga jalb qilish maqsadida ishlatiladi. Bunga quyidagi misolni keltirishimiz mumkin. SHu tagni ko'rib chiqaylik:

< MARQUEE BEHAVIOR= ALTERNATE | SCROLL | SLIDE DIRECTION= DOWN | LEFT | RIGHT | UP >

ALTERNATE -bir burchakdan ikkinchisiga borib keladi .

SCROLL -Bir tarafdin chiqib ikkinchi tarafga kirib ketadi va shunday aytarilib turadi
SLIDE-SCROLL kabi lekin faqatgina bir marotaba ishlaydi.

Misolda ko'raylik

<HEAD> <TITLE>O'zbekcha lug'at </TITLE>

</HEAD> <BODY >

<H1> Lug'at</H1>

<DL title="Lug'at">

<DT>Andijon

<DD> Uzbekiston davlatidagi, Andijon viloyati markazi

<DT>HTML

<DD> Web sahifalar yozish tili

<DT>Farhod

<DD> Shu sahifa avtori </DL>

<P> <MARQUEE BEHAVIOR=ALTERNATE DIRECTION=RIGHT>Bizning o'zbekcha lug'atimiz</MARQUEE>

</BODY> </HTML>

2 soniyadan keyin esa:



Muhokama uchun savollar

ilova

4-

1. Forma tegi qanday ifodalanadi?
2. INPUT tegi va uning atributlari?
3. Formada ma'lumotlarni kiritish tartibi qayday?

1. B/B/B jadvali

5-ilova

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

M a v z u : Front Page dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari.

Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish

MA'RUZA DARSINI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni:	50-60 talaba
Vaqt:	2-soat
Dars shakli	Mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi:	1. Front Page dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari. 2. Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish.
Darsning maqsadi: Talabalarda HTMLda formalar haqida tushuncha hosil qilish.	
Pedagog vazifalari: Front Page dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari. Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish haqida tushuncha beradi.	O'quv natijalari: • Front Page dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari; • Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish haqida bilib oladi • Mustaqil Web sahifalar yaratadi.
O'qitishning usul, texnikasi:	Ma'ruza, suxbat, baxs-munozara muhokama qilish, mustaqil ta'lim, BBB
O'qitish vositalari:	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar
O'qitish shakli:	Frontal
O'qitish shart sharoitlari:	Texnik vositalarni qo'llashga mo'ljallangan auditoriya. Proektor
Monitoring va baholash:	Og'zaki so'roq, savol-javob, tahlil natijalari.

Front Page dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari.

Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish mavzusidagi

MA'RUZA DARSIGA TEXNOLOGIK KARTA

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich. Kirish (25 daqiqa)	1.1. Mavzuni e'lon qiladi, ma'ruza rejasi, tayanch so'z va iboralar tanishtiradi. (1-ilova)	Eshitadilar va kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Mavzu rejalari asosida bayon etiladi (2-ilova) Jarayon komp'yuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi. 2.2. WEB sahifa yaratishga misol (3-ilova)	Eshitadilar va yozib oladilar

3-bosqich Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1. Talabalarga savollar bilan murojat etadi Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytib o'tadi (4-ilova) 3.2. Talabalarning dars davomidagi faoliyatini tahlil etadi va baholaydi. (5-ilova)	Savollarga javob beradilar Mustaqil ishlashlarni bajaradi
--	--	--

MAVZU

1-ilova



REJA:

- 1. Front Page dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari.**
- 2. Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish**

Tayanch so'z va iboralar

Web sahifa, Pront Page, shblonlar, oynalar

Front Page dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari

2-ilova

Microsoft Front Page Web-uzelni dasturlashsiz tezda etkazish va unda professional ravishda tayyorlangan hujjatlarni nashr etish imkoniyatini beradigan maxsus vosita hisoblanadi. Front Page ilovasining interfeysi Office interfeysiga o'xshash interfeysga ega HTML sahifasi bilan ishlash uchun mo'ljallangan instrumentlar, shu jumladan uzoqdagi ko'p marta foydalanish rejimi va wysiwc rejimi ham shunday. Front Page tarkibiga web-uzellarni va HTML-sahifalarni interaktiv tadqiq qilishda ishlatiladigan master va shablonlar kiradi.

MS Front Page 2000-bu WEB-saytlarni quvvatlab turuvchi kuchli sistemaning yangi versiyasi, (versiya 4.0)dir. U WEB uzelni yaratishdagi oddiyligi, Microsoft Office ning boshqa ilovalari bilan uzviy bog'lanish imkoniyati mavjudligi bilan ajralib turadi.

MS Front Page 2000ning MS Front Page 98ga nisbatan afzalligi:

1. Web-sahifa elementlarini aniq o'rnatuvchi yuqori darajali Web-uzellarni tez va professional tarzda yaratish, NTML fayllarini import qilish va tahrir qilish, Web-sahifalar yaratish bo'yicha yangi texnologiyalarni qo'llash mumkinligi;
2. Taxlangan qulay NTML-muharririning mavjudligi (foydalanishda eng qulay NTML-kod generatorli WYSIWIG muharriridan tashqari).
3. Ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilishning osonligi. Bu ma'lumotlar bazasiga bo'lgan talablar joylashuvini qo'llash jarayonidada va ularni Web-sahifalarga taxlashda ifodalanadi. Bunda yaratilajak Web-sahifalarda axborotlarni yangilash imkoni paydo bo'ladi. Bu hodisa foydalanuvchi brauzer darchasini ochganda yoki ularni yangilaganda sodir bo'ladi.
4. Uning to'g'ri ishlashiga ishonch hosil qiluvchi yaratilajak Web-uzelning hamma komponentlarining aks etishi. Bu Web-uzelni yangilash imkoniyatini yaratadi. Web-uzelni analiz qilish va yangilash yangi statistik hisobotlar evaziga ham soddalashadi. Odatda, ular tarkibiga

fayllarining umumiy soni va razmeri, sekin yuklanadigan sahifalar, foydalanmagan fayllar va uzilgan giper – bog'lanishlar to'g'risidagi axborotlar kiradi.


5. Rutinli ishlarni avtomatik ravishda bajarish bu ob'ektlar nomini yoki joyi o'zgartirilganda sahifa va fayllardagi barcha havolalarni avtomatik tarzda tuzatish, berilgan kategoriyaga taalluqli barcha hujjatlarga havola (ssылka)larni avtomatik tarzda joylash).

Front Page 2000 da Front Page Explorer va Front Page Editor dasturlari bitta ilovaga birlashtirilgan. Frontpage 2000 15 tagacha tilni quvvatlaydi, Windows Installer Tehnologiydagi ilovalar instalyasining yangi texologiyasidan foydalanib, kompyuterga osongina joylasha oladi. Uning yordami bilan talabga binoan ish olib borish, serverdan yuklash va ilovaning mustaqil ravishda tiklanishi ta'minlanadi.

Web-uzel yaratishda va uni boshqarishda eng qulay instrumentlar bilan ta'minlab turilsada, Front Page Express versiyasi zamonaviyligi bo'yicha biroz orqada turadi.

Front Page 2000 ning standart darchasi

Front Page 2000 ning standart darchasi 1– rasmda ko'rsatilgan.



1 – rasim. Front Page 2000 ilovasining tashqi ko'rinishi

Yuqorida ko'rsatilganidek MS Office darchasida ishlash uchun har hil vositalar keltirilgan.

Sistema menyusi tugmasi–Front Pagening tashrif kartochkasi darchaning chap yuqori burchagida joylashgan. Sistema menyusini ochish sistema menyusidagi **click** piktogrammasi orqali bajariladi.

YOnma–yon **sarlavha satri** joylashgan. Darchaning o'ng yuqori burchagida uchta tugmalar uning ajralmas elementlari hisoblanadi va xizmatchi tugmalar deyiladi. Agar chapdan o'ngga sanab chiqsak, bu tugmalar vazifalari quyidagicha:

- birinchi tugma–burmoq–faol dasturni masalalar panelidagi tugmaga buradi.
- ikkinchi tugma–tiklamoq–faol dasturni ekranning bir qismini yoki himoyasini egallashga majbur qiladi.
- uchinchi tugma–yopmoq–darchani yopadi.

Sarlavha satri va instrumentlar paneli orasida Front Pagening bosh menyusi joylashgan. Menyu ikki paneldan tashqari Front Pagening buyruqlari va vazifalari bilan tanishishda diqqat bilan kuzatish ob'ekti hisoblanadi,[23; 98-110].

Menyu satri ostida va ekranning yuqori qismida asboblari paneli joylashgan Front Page 2000 juda ko'p miqdordagi panellarga ega. Ularsiz dasturlar bilan ishlashda ancha qiyinchiliklarga duch kelinishi mumkin. Asboblari paneli sichqonchani oddiygina chiqillatish bilan Front Pagening eng ko'p ishlatiladigan ko'plab funktsiyalariga kirish imkonini yaratadi. Tadqiqotchilar dasturlarga eng ko'p foydalaniladigan va foydali funktsiyalarni kiritdilar, vaholanki ular Web sahifalarni yaratishda juda zarurdir. Menyu va asboblari panelini o'zlashtirishda qiyinchiliklar bo'lmasligi kerak.

Asosiy ish maydoni harakatlanuvchi chegara (splitter) bilan ikki tengsiz qismga ajratilgan chapki qismi (Views) Front Page ish rejimini ishga tushirish tugmalariga ega. O'ng qismi ko'rsatilgan rejimda ishlash uchun mo'ljallangan asosiy axborotni o'z ichiga oladi. Sahifalarni loyihalash uchun indamaslik bo'yicha Page rejimi o'rnatilgan. Bu rejimda o'ng qism foydalanuvchini yaratuvchi sahifaning o'zida aks ettiradi.

Ishchi oraliqning o'ng qismi loyihalajak sahifaning har xil rejimda aks etishini ko'rsatib turuvchi uchta varaqdan iborat. **Normal** rejimi loyihalash rejimi uchun, HTML–HTML kodi sahifasini ko'rib chiqish uchun, Preview esa uzoqdagi foydalanuvchi tomonidan yuklash paytida brauzerda aks etadigan loyihalajak sahifani ko'rsatib turish uchun xizmat qiladi. **Normal va preview** sahifalari faqat matn va grafik tasvirlarga ega bo'lgan oddiy sahifalar uchun bir xil bo'ladi. Sahifalarga videolavhalar yoki sahifaning qandaydir faol elementlari joylashtirilgan taqdirda ular bir-biridan farqlanadi.

Microsoft Front Page darchasining eng pastki qismida **status satri** joylashgan. Foydalanuvchiga dastur tomonidan berilishi lozim bo'lgan barcha xabarlar bu satrda xabar ko'rinishida paydo bo'ladi. Birinchi qarashda unda hech qanaqa muhim bir narsa yo'qdek tuyuladi. Ammo status satrida aniq loyihalash uchun juda qiziqarli va zarur axborotlar mavjud. **Qum soat** tasvirli bo'limda esa, muayyan aloqa tezligida joriy sahifaning yuklash vaqti ko'rsatiladi. Indamaslik bo'yicha 28.8 K bod tezligi ishlatiladi, lekin uni o'zgartirish variantlari bor. Sichqonning istalgan tugmasi click va standart tezliklar–14.4; 28.8; 56.6 K bod ro'yxatini chiqarib beradi. Standart tezliklardan tashqari har xil o'tkazish qobiliyatli ajratib ko'rsatilgan chiziqlar standartining ICDM? T1 à T3 parametrlaridan kelib chiqqan holda, yuklash tezligining hisoblash imkoniyatlarini topish mumkin.

Umuman, Pront Page murakkabligi bilan farqlanmaydi, ishlash printsipi odatdagi MS Wordga o'xshaydi. Matn va jihozlash elementlari xoxish sahifalarida joylashadi, kiritilgan o'zgarishlar uchun esa, ob'ekt ajratiladi va unga kerakli harakatlar qo'llaniladi.

Front Pagening ish rejimlari

Front Page da quyidagi ish rejimlari qo'llaniladi:


1. Page–loyihalash rejimi.
2. Folders–sayt strukturasini aks ettirish rejimi.

3. Reports–sayt to'g'risidagi zaruriy axborotlarni aks ettirish rejimi.
4. Navigation–sayt navigatsiyasi rejimi.
5. Hyperlinks–ichki va tashqi aloqalar strukturasi rejimi.
6. Task–topshiriq va masalalarni boshqarish rejimi.

Saytni yaratish Web–sahifani loyihalash bilan tamom bo'lmaydi. YUqorida aytilganidek, indamaslik bo'yicha barcha parametr va zaruriy dizaynlar bilan Web–sahifa yaratiladigan Page loyihalash rejimi o'rnatiladi. Sayt yaratishda saytning ichki strukturasi, tashqi va lokal giperbog'lanish sxemasini, xaqiqiy navigatsiya sxemasini quvvatlashni va nazorat qilishni inobatga olish zarurdir. Bu barcha vazifalar Front Page tomonidan quvvatlab turiladi,[20;173-184].

Folders rejimi sayt strukturasi aks ettirish uchun mo'ljallangan. Asos–papkalar strukturasi to'g'ri yaratish, ulardan biriga grafik fayllar, boshqasiga fayl elementlar joylashadi. Ba'zi papkalar Web–sahifalarni tematik saqlash uchun ishlatiladi.

Folders o'tish tugmasi bilan strukturaning aks ettirish rejimi (2 – rasmda keltirilgan)



2 – rasm. Folders ish rejimi.

Windows standart provodnigi sayt strukturasi aks etishiga o'xshab ketadi. CHap qismi (Folder List)da yaratilajak sayt papkasining daraxtsimon strukturasi ko'rsatiladi. O'ng qismida esa papkalardan tashqari fayllar ham ko'rsatiladi. Saytning daraxtsimon strukturasi **Page** rejimi (asosiy asboblari panelidagi Folder List tugmasi yoki View–Folder List)da ham ko'rsatish mumkin. Folders rejimida sayt daraxtining aks etishi majburiy hisoblanadi. SHuning uchun yuqorida ko'rsatilgan tugma va menyu komandasiga erishish qiyin.

Umuman, bu rejim informatsion rejim hisoblanib, unda fayl strukturasi to'g'risida maksimal to'la axborot beriladi. Ishchi oraliqning asosiy qismi jadval ko'rinishida qurilgan.

NAME–qatorida fayl yoki papka nomi ko'rsatiladi.

Title–sahifa sarlavhasi yoki sayt qolgan elementlari nomini ko'rsatadi.


Size lu Type–fayl o'lchami va uning kengayishini ko'rsatadi.

Modified Date–soni va qaysidir saytning oxirgi o'zgarish vaqtini ko'rsatadi.

Modified Bu–oxirgi fayl nomi.

Cowwents–sharhlarni joylashtirish uchun.

Reports rejimini tanlashdagi Reporting faollashadigan darchasi, (3 – rasm).



3 – rasm. Reports ish rejimi.

Indamaslik bo'yicha sayt (Site Summary) to'g'risidagi hamma statistika indamaslik bo'yicha ko'rsatiladi. Jadvalning har bir satri–bu statistik kategoriya bo'yicha yig'ma hisobot. To'la hisobot satrlari (Reporting–Report yoki hisobot mos satridagi Dulle click):

All files–sayt barcha fayllarining miqdori va umumiy o'lchami.

Pictures–sayt grafik fayllarining miqdori va umumiy hajmi.

Unlinked files–saytning asosiy sahifasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan fayllar miqdori.

Linked files–sayt asosiy sahifasi bilan bog'langan fayllar miqdori.

Slow pages–30 sekunddan ortiq yuklanadigan HTML–fayllar miqdori («sust sahifalar»).

Sust sahifalarni aniqlashda vaqtinchalik kriteriyani o'zgartirish uchun imkoniyatlar mavjud, [45].

(Reporting–Reports–Slow pages–Report Setting ro'yxati–vaqtinchalik kriteriyaning zaruriy qiymatlarini tanlash).

Older Files–aniqlangan kunlar mobaynida o'zgarmagan fayllar miqdori. (Indamaslik bo'yicha–72). O'zgartirish mumkin: Reporting–Reports–Older Files–Report Setting. Muddati ko'rsatiladi; **Recently added Files**–oxirgi bir qancha kunlar mobaynida qo'shilgan fayllarning umumiy miqdori, (indamaslik bo'yicha–30). O'zgarish: Reporting–Reports–Recently added Files–Report Setting. Muddati ko'rsatiladi.

Har bir giperbog'lanishni tekshirish mumkin va kerak. (Reporting–Verify Hyperlinks tugmasi yoki Tools–Recalculate Hyperlinks). Giperaloqalar to'g'risidagi axborotni aks ettirish uchun quyidagi satrlar ishlatiladi:

Unverified hyperlinks–berilgan vaqtdagi tekshirilmagan giperaloqalar miqdori.

Broken hyperlinks–ishlamaydigan giperaloqalar.

Internal hyperlinks–ichki giperaloqalar.

External hyperlinks–tashqi giperaloqalar.


Funktsional saytlarni tashkil etishda aktiv elementlarsiz maqsadga erishish ancha qiyin bo'ladi. Ularni testlashtirish zarur. Aktiv elementlarni sozlashda va joylashtirishda uchraydigan

ba'zi bir xatoliklarni Front Page 2000ning o'zi topadi. Bunday xatoliklar to'g'risidagi axborotlar **Component error** satrida jamlanadi. Ishni tashkil qilish va rejalashtirish vositalari masalalarni tatbiq etishda aniqlanadi. Barcha ishlar bajarilgach, ular tugallangan statusga ega bo'ladi. Tasdiqlanmagan masalalar miqdori to'g'risidagi jamlangan axborotlar esa, Uncompleted tasks satrida joylashgan.

Saytni rasmiylashtirishga mavzulardan foydalanish kiradi. Sayt uchun bitta yoki bir nechta mavzularni ko'rsatish mumkin. Foydalanish uchun tanlangan, lekin bitta ham sahifada qo'llanmagan mavzular miqdori **Unused themes** satrida ko'rsatiladi.

Statistikaning ko'rib chiqish rejimidan categories (Report ro'yxatidan tushib qolgan) rejimini aytib o'tish joiz. Unda fayl tarkibiga kirgan u yoki bu ob'ektga taalluqli kategoriyalar ko'rsatiladi. Publish status da esa, nashr etish tayyorgarligidan o'tgan yoki o'tmagan sayt elementlarini bilib olish mumkin.


Navigation rejimi sayt mantig'i va ichki strukturasi to'g'risidagi axborotni ko'rsatadi, (4 rasm).



4 – rasm. Navigation ish rejimi.

Navigation rejimida ishchi maydoni ikkita darchaga ajratiladi, bittasida fayl daraxti aks etadi. Uning yordamida menyuga tegishli tugma va komandalarga bimalol kirish mumkin.

Sayt bo'yicha navigatsiya giperaloqalar yordamida o'tadi. Sahifaning ichki va tashqi aloqalar strukturasi ko'rib chiqish uchun **Hyperlinks** rejimidan foydalanish zarur, (5 rasm).



5 – rasm. Hyperlinks ish rejimi.

Hyperlinks rejimida ishlash tamoyili:

Sayt daraxtini ko'rsatuvchi **Folder list** darchasida kerakli Web-sahifa tanlanadi. Asosiy darchada kiruvchi va chiquvchi dastak (ssылka) lar sxematik ravishda ko'rsatiladi. Bu holda giperaloqalar ko'k rangli strelka bilan aks etadi; dastak hisoblanmagan aloqalar esa, jigar rangli chiziqlar bilan aks etadi. Xuddi shunday giperaloqali sahifalar ham o'rnatilgan plyus (Q) belgisi bilan ko'rsatiladi. Bu belgi ustida chiqillatish uning o'zi uchun giperaloqani ifodalaydi. Bunda plyus belgisi minus (-) belgisiga o'zgaradi. SHu usul bilan ishchi maydonda saytning xamma tashqi va lokal giperaloqalarini kengaytirish mumkin. Sahifani ishchi maydon markaziga joylashtirishda aylantirish tasmasi va **Hove center** (menyu konteksti) buyrug'idan foydalaniladi. Web-sahifaning u yoki bu belgisidagi Double click unda saqlanayotgan narsalarni tahrirlash mumkin bo'lgan Page rejimiga o'tkazadi. Ishning umumiy tsiklini tashkil qilishda Tasks rejimi qo'llaniladi. Bu rejimda mo'ljallangan topshiriqning bajarilish darajasini kuzatish mumkin. Front Pageda xohlagan xatti-harakatlarni rejalashtirish masala mohiyatiga qarab amalga oshiriladi. Masala qo'shimchasi: Edit task–Add task yoki tugmalar. Bunda dialog darchasi New task aktivlashadi (6 rasm).

New Task

Task name:

Assigned to:

Associated with: index.htm

Completed: No

Modified by: (Has not been modified)

Created by: Headserver on 15.04.05 at 9:49:08

Priority:
☐ High
☒ Medium
☐ Low

Description:

OK Cancel

6 rasm. New task dialog darchasi

Task name_maydonida masalalar nomi yoziladi. YOnma-yon prioritetning uchta radiotugmalari (High, Medium– indamaslik bo'yicha, Low) joylashgan. **Assigned to** ro'yxatida tushib qoladigan masalalar nomi ko'rsatiladi. Bu nomlar ishchi guruh a'zolari ismlari oldindan yozib qo'yiladigan matnli kiritish maydonidan tanlab olinadi. Topshiriqlarni qayd qilib borish uchun **Description** nomli matnli kirish maydoni qo'llanadi. YAngi masalalar u yoki bu Web-sahifaga biriktirilishi yoki mustaqil bo'lishi mumkin. Birinchi holda **Associated with** maydonida html-fayli nomi yoziladi.

Masalalarni boshqarish **Tasks** rejimida olib boriladi, (4.7 rasm).

Task	Assigned to	Priority	Associated with	Modified Date
New Task	Headserver	High	index.htm	15.04.05 10:14:14
New Task	Headserver	High	index.htm	15.04.05 10:14:14
New Task	Headserver	High	index.htm	15.04.05 10:14:14
New Task	Headserver	High	index.htm	15.04.05 10:14:14
New Task	Headserver	High	index.htm	15.04.05 10:14:14
New Task	Headserver	High	index.htm	15.04.05 10:14:14
New Task	Headserver	High	index.htm	15.04.05 10:14:14
New Task	Headserver	High	index.htm	15.04.05 10:14:14
New Task	Headserver	High	index.htm	15.04.05 10:14:14
New Task	Headserver	High	index.htm	15.04.05 10:14:14

7 rasm. Tasks ish rejimi.

Status kolonkasida masala statusi ko'rsatiladi, (masala ustida ish hali boshlanmagan–**not started**; boshlangan, lekin tugallangan–**Not Completed** tugallangan–**completed**). Birinchi status **Start tasks** (Edit-Task-Start) buyrug'i bajarilgach olinadi. Masala bajarilgan keyin unga status

(**Edit-Task-Work as Completed** yoki menyu konteksti tugmasi) nomi beriladi. Masalalar mohiyati to'g'risidagi barcha imkoniyatli axborotlar **Tasks** ish rejimining asosiy jadvalida aks etadi:

Status—status berilganligini bildiradi.

Task—identifikatsiyalashgan qisqa masala.

Assigned to—masala bajarilishi bo'yicha mas'ul shaxs nomi.

Priority—prioritet.

Associated with—bog'lovchi HTML—fayl nomi.

Modified date—sana va oxirgi o'zgarish vaqti.

Description—topshiriqning to'la shifri ochilishi.

Ixtiyoriy masala to'g'risidagi ma'lumotlarni status o'zgaruvchining standart mexanizmi (Edit task—komandasi)ni aylanib o'tib, to'g'ridan-to'g'ri kirish usuli bilan o'zgartirish mumkin. Bunda **Task details** darchasi aktivlashadi (rasm.6). Zaruriyat to'g'ilsa, masalani yo'qotish mumkin, (menyu kontekstidagi **delete** buyrug'i). Front Page Web—uzellarni tezda yaratish va dasturlashsiz professional tarzda jihozlangan hujjatlarni chop etuvchi maxsus vositadir.

Front Page Express Web—uzel yaratish va uni boshqarish uchun juda qulay asboblardan ta'minlash —da nisbatan kam rivojlangan vositadir. Standart darchalarni o'zlashtirishda Front Page qiyinchiliklar yuzaga keltirmasligi kerak.

Front Page da quyidagi ish rejimlari mavjud: Page—loyixalash; Folders—sayt tuzilmasini aks ettirish; Reports—sayt to'g'risidagi zaruriy axborotni aks ettirish; Navigation—sayt navigatsiyasi; Hyperfine—aloqa tuzilmasi rejimi; Task—topshiriq va masalalarni boshqarish rejimi.

Internet sahifa yaratilgach, quyidagi ketma-ketlikka rioya qilish kerak: saqlab qo'yish va sahifani ko'rib chiqish.

Front Pagening jihozlash imkoniyatlari matini iste'molchiga samarali etkazib berish imkonini beradi (numerlangan va markerlangan ro'yxatlarni jihozlash, rangli jihozlash imkoniyatlari, grafikadan foydalanish va b.q.).

Ichki va tashqi giperhavolalar o'z vazifalariga ega bo'lib, navigatsiya va saytlararo harakatda yagona vosita hisoblanadi. Ularni o'rnatish uchun o'zgina tajriba etarlidir.

Front Pagening multimedia imkoniyatlari—bu audio va vidokliplarni o'rnatish hisoblanadi.

Web—sahifa yaratishdagi muhim instrument (asbob) bu jadvallardir. Front Page va ular axborotni joylashtirish bilan birga matn va grafikalarining holatini ham to'g'rilab beradi.


Front Page 2000 master va shablonlar yordami bilan Web-uzel yaratish

Microsoft Front Page 2000—bu Web-uzellarni quvvatlab turuvchi kuchli sistema versiyasi hisoblanadi. Bundan keyin uzel deganda saytni tushunamiz. Bu sistemani tadqiq qilishda asosiy e'tibor oxirgi foydalanuvchilar istaklarini o'rganib chiqishga qaratiladi. Natijada, dastur versiyasiga uchta asosiy talablar yuzaga keldi: Web—uzel yaratishning oddiyligi, Web-uzelni oddiy usulda yangilash va Microsoft Office ning boshqa ilovalari bilan yaqin o'zaro harakatda bo'lish imkoniyati.

Front Page 2000 da tez va professional tarzda Web-uzel yaratishga yordam beruvchi maxsus vositalar, shablonlar va masterlar mavjud. SHablon mos ravishda tahrirlovchi HTML sahifa asosi hisoblanadi. **Master** bir yoki bir nechta ekranlardan iborat dastur modulidir. U qator

savollar berib yaratilajak elementga beriladigan talablarni tushuntiradi. Natijada qoniqarli hujjat yuzaga keladi. Web-uzellar shablonlari kichik saytlarga joylashtiradi, ularda sozlanishga muxtoj bo'lgan bir nechta elementlar bor holos. Lekin tasvir, matn, dastak va shu kabi Front Page 2000 imkoniyatlaridan foydalanib, ularni kengaytirish mumkin.

Shablon bo'yicha sayt yaratish dialogini asosiy menyudan File-New-Web tanlab olib chaqirish mumkin, bunda 8- rasmdagi darcha ochiladi.



8 rasm. Web–saytni yaratish darchasi.


Web-uzel asos sifatida foydalanishda quyidagi shablonlardan birini tanlash mumkin:

- bitta bo'sh sahifadan iborat One Page Web –sayti;
- Customer Support Web-buyurtmachilarning quvvatlash sayti. Uning yordami bilan buyurtmachilar va haridorlar xatolar ro'yxatini, ilgarigi muammolarni bartaraf qilish bo'yicha qarorlarni, mahsulot va xizmatlarni takomillashtiruvchi takliflarni olishlari mumkin;
- Empty Web-bo'sh sayt ya'ni sahifani muallifning o'zi yaratadi va qo'shib qo'yadi;
- Personal Web shaxsiy sayt yaratuvchi shaxsiyati aks etadigan qator sahifalar;
- Project Web–sayt loyihasi qandaydir loyiha uchun ishlatiladigan markaziy informatsion forum. Bu shablon uy saxifasini yaratadi, unda loyiha ishtirokchilari berilgan loyiha bo'yicha masalalar jadvali, loyiha bo'yicha joriy ishlar holati, qidiruv sahifalari, har xil shakllar va diskussion sahifalar, shu bilan birga hamma boshqa manzillarga havola etish dastaklarini o'z ichiga olgan sahifalar sanab o'tiladi.

Web-uzel va sahifalarni yaratuvchi masterlar esa nisbatan ancha ko'p imkoniyatlarni taqdim etadilar. Web-uzellar uchun quyidagi masterlardan foydalanish mumkin. (5.1 rasm)

- Corporate prence wizard-kompaniya vakolatxonasini yaratish masteri. Uning yordami bilan internetdagi o'z biznesini taqdim etish uchun uzal yaratish mumkin;
- Diskussion web wizard-xoxlagan mavzuda joyini yaratib beruvchi diskussion guruh sayтини masteri. Bunda har bir foydalanuvchi xuddi mos keladigan maqola kabi rasimiylashtiriladigan muxokamalardan biri ramkasida o'z fikr va muloxazalarni izxor etishi mumkin;

• Import Web Wizard–import satrlar Masteri. Bu master mavjud Web–uzelning barcha fayllarini Front Page 2000 ga ulash va ulardan yangi sayt yaratishga imkon beradi. Bundan tashqari Front Page 2000 oldingi versiya saytlarini import qilishda foydalanishi mumkin. Diskysson Web Wizard masteri asosida Web-sayt yaratishni batafsil ko'rib chiqamiz. Birinchi qadamda, berilgan master (1 rasm.) piktogrammasi bosilgach, bu master nimaga mo'ljallangan va uning imkoniyatlari to'g'risidagi axborotli xabar paydo bo'ladi. Next tugmasini bosish navbatdagi qadamga olib boradi. (9 rasm.)



9- rasm. Diskussion guruhlar sayti yaratishdagi ikkinchi qadam.

Bu erda qancha sahifa tiplari Web–uzelga ulanishini ko'rsatish zarur–diskussion forma (shakl) mundarija sahifasi, qidiruv formasi, savollar keltirilgan sahifa, daraxt ko'rinishdagi jadvallar va fikrlar va tasdiqlovchi sahifa. Muallif o'z xoxishiga ko'ra nokerak sahifalarni (birinchisidan tashqari–u diskussion saytning asosini tashkil qiladi) olib tashlashi mumkin.

Uchinchi qadamda (rasm10) diskussiya nomini va diskdagi papka ismini kiritishi zarur.

To'rtinchi qadamda diskussiyaga yoqish uchun ba'zibir maydon kalitlari beriladi. Zaruriyat yuzasidan keyinchalik miqdor va imzolarni korrektirovka qilish mumkin (rasm10.)

Beshinchi qadamda, diskussiya yopiq saytda o'tadimi va faqat ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar ishtirok etadimi yoki diskussiya ochiq tarzda o'tadimi kabi savollarga javob izlanadi.




10- rasm. Diskussion guruhlar saytini yaratishdagi uchinchi qadam.




11- rasm. Diskussion guruhlar saytni yaratishdagi to'rtinchi qadam.

So'ngra navbatdagi qadamda har xil darajada buzilgan maqolalarning mundarijadagi aks etishini aniqlash zarur bo'ladi. Ettinchi qadamda mundarija sahifasi bir vaqtning o'zida sayt uy sahifasi ham bo'laoladimi yoki yo'qmi, degan savolga javob berib ketish kerak. Sakkizinchi qadamda qidiruv natijasida topilgan maqolalarning qanday aks etishi to'g'risidagi xabarlar aniqlanadi.




11- rasm. sayt diskussion guruhlari yaratishning sakkizinchi qadami.

Keyingi qadamda sayt uchun jihozlash mavzusini tanlab olish mumkin. Buning uchun Cpase Web Theme tugmasi bosilgach, mos dialog ochiladi (rasm12)



Chap tomonda joylashgan ro'yxatda jihozlash mavzusini tanlab olish va uning namunasi bilan tanishish imkoniyati mavjud. Hamma elementlarni jihozlashdagi mavzu va uslublar (stil) barcha saytlar uchun avtomatik tarzda qo'llaniladi, va muallifga bu sayt to'g'risida bosh qotirishga xojat bo'lmaydi. Sayt yaratishning to'qizinchi qadamida sayt yaratishda freymlar ishlatilishi yoki yo'qligini aniqlanadi. Freymlardan foydalanilganda ularning nisbiy joylanishini belgilash imkoniyati mavjuddir. Va oxirgi qadamda yakunlovchi axborot tayyor bo'ladi. Finish tugmasini bosish bilan sayt generatsiyalanadi (tayyor bo'ladi). SHundan keyin olingan natijalarni tahririyatda o'zgartirish mumkin. Muallif yoki administrator sifatida kirish imkoniyati mavjud bo'lgan taqdirda yaratilgan sayt uchun administratsiyalashni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Xuddi master yordamida sayt yaratish kabi alohida sahifalarni yaratish mumkin bo'ladi. Sahifa yaratish dialogi to'g'risida asosiy menyuda Fule-New-Page tanlanadi. 13 rasm.)



13 rasm. Web-sahifa yaratishning dialog darchasi.

Alohida sahifa faylini yaratishda sahifa jihozlashning standart namunalari tavsiya qilinadi, (yaratish ishlarini osonlashtirish maqsadida). Bunda General qo'shimcha sahifasida oddiy sahifalarni yaratish imkoniyati bor. Misol tariqasida—quyidagilarni ko'rsatish mumkin, bibliografik ro'yxatli Bibliography) sahifa bo'sh (Normal Page) sahifa, mexmonlar kitobi (Guest book) va boshqalar. Bu dialogning Frames Pages qo'shimcha varog'ida bir nechta mustaqil qismlardan (freym) iborat sahifalarni yaratish uchun shablonlar joylashgan. Va nihoyat Style Sheets qo'shimcha varog'i uslub (stil)lar sahifasini yaratish uchun mo'ljallangan. (Normal Page) Front Page 2000 odatdagi sahifa shablonidan boshlab ko'p miqdordagi har xil sahifa shablonlarini tavsiya qiladi. (Three Columns Staggered). Bu erda Web-form ni yaratish masteri inobatga olingan. Amaldagi joriy saytga shablonlar yordami bilan yaratilgan sahifalarni qo'shib qo'yib, web saytni tez va osongina qurish mumkin. Buning uchun sahifa shablonini tanlab olishgach, asosiy darchada tahrirlash mumkin bo'lgan mos sahifa yaratiladi



Shunday qilib, master va shablonlar web saytni tez va samarali yaratishda Front Page 2000 ning eng kuchli va egiluvchan (qulay) vositasi hisoblanadi.



Muhokama uchun savollar

ilova

4-

1. Front Page ahamiyati qanday?
2. Front Pagening asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Front Page ish rejimlari qanday?
4. Tasks ishchi rejimning asosiy jadvali nimalardan iborat?
5. Web-uzel yaratish uchun Front Page 2000 ning shablonlari va xillari qanday?
6. Front Page 2000 masterlari va ularning xillari nimalardan iborat?

1. B/B/B jadvali

5-ilova

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

M a v z u : Dreamweaver dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari. Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish

MA'RUZA DARSINI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI

Talabalar soni:	50-60 talaba
Vaqt:	2-soat
Dars shakli	Mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi:	1. Dreamweaver dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari. 2. Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish
Darsning maqsadi: Talabalarda HTMLda formalar haqida tushuncha hosil qilish.	
Pedagog vazifalari: Dreamweaver dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari. Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish haqida tushuncha beradi.	O'quv natijalari: • Dreamweaver dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari; • Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish haqida bilib oladi • Mustaqil Web sahifalar yaratadi.
O'qitishning usul, texnikasi:	Ma'ruza, suxbat, baxs-munozara muhokama qilish, mustaqil ta'lim, BBB
O'qitish vositalari:	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar
O'qitish shakli:	Frontal
O'qitish shart sharoitlari:	Texnik vositalarni qo'llashga mo'ljallangan auditoriya. Proektor

Monitoring va baholash:	Og'zaki so'roq, savol-javob, tahlil natijalari.
--------------------------------	---

Dreamweaver dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari.
Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish mavzusidagi
MA'RUZA DARSIGA TEXNOLOGIK KARTA

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich. Kirish (25 daqiqa)	1.1. Mavzuni e'lon qiladi, ma'ruza rejasi, tayanch so'z va iboralar tanishtiradi. (1-ilova)	Eshitadilar va kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Mavzu rejalari asosida bayon etiladi (2-ilova) Jarayon komp'yuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi.	Eshitadilar va yozib oladilar
3-bosqich Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1. Talabalarga savollar bilan murojat etadi Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytib o'tadi (3-ilova) 3.2. Talabalarning dars davomidagi faoliyatini tahlil etadi va baholaydi. (4-ilova)	Savollarga javob beradilar Mustaqil ishlashlarni bajaradi

MAVZU: Dreamweaver dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari.

1-ilova



REJA:

- 3. Dreamweaver dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari.**
- 4 Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish**

Tayanch so'z va iboralar
Web sahifa, Dreamweaver, master, shblonlar, oynalar

2-ilova


Dreamweaver MX bu - nafaqat interfeysning tashqi ko'rinishi yangilangani, balki radikal texnologik yangilangan, gipermatnli belgilash tili imkoniyatlari kengaygan. Web-sahifa maketlarini yaratish uchun yangi ashyolar paydo bo'ldi; bu tizimga Flash ob'ektlarni qo'yish (integrirovana) buyruqlari qo'shilgan; bu esa kelajakda WEB uzellar bilan boshqarish va turli jamoaviy ishlarni loyihalashda rivojlanishga imkon beradi.

Dreamweaver paketi taklif etadigan muomala usuli zamonaviy foydalanuvchi uchun odatiy bo'lib qolgan grafik oynali interfeys printsiplariga asoslanadi. Dreamweaver paketi o'sha sinfdagi boshqa dasturlar bilan taqqoslaganda ancha aniq, moslashuvchan va shu bilan bir paytda kuchli interfeys hisoblanadi. Palitralar, ko'p sonli klaviatura kombinatsiyalari va menyu qatori uning asosiy «tashuvchi loyihalari» hisoblanadi. Barcha operatsiyalar to'xtatilgach ekranda qoladigan oynalarni palitrallari (Palette) yoki panellar (panel) deb atash qabul qilingan. Ekranning maxsus ajratilgan pozitsiyalarida emas, balki ixtiyoriy joyida joylasha oladigan oynalar ko'chib yuruvchi palitralar (floating plette) deb ataladi. Dreamweaver dasturi muloqot oynalarining ko'pchiligi ko'chib yuruvchi palitralar ko'rinishida ishlaydi.

Palitralar va panellar orasidagi kichik farqlar dasturni tavsiflash uchun sezilarli ahamiyatga ega emas. SHuning uchun kelgusida bu atamalarni sinonimlar sifatida qo'llaymiz.

Deyarli barcha palitralar birlashish xususiyatiga ega. Bu har xil palitralarni bitta muloqot oynasida joylashtirish mumkinligini bildiradi. Birlashtirish amali turli mavzu yoki buyruqlarga tegishli boshqaruv vositalariga ega bo'lgan ko'p funktsiyali terma palitralarni olish imkoniyatini beradi. Birlashish xususiyatiga ega bo'lgan palitralarni (ular dasturda ko'pchilikni tashqil etadi) modulli (dockable) palitralar deb ataymiz. Bir necha alohida modullardan iborat murakkab palitralar terma (tabbed) palitralar deb ataladi.

1-rasmda to'rtta ochiq muloqot oynali dasturning tashqi ko'rinishi ko'rsatilgan. Boshqaruvning eng talab qilinuvchi vositasi so'zsiz, Properties inspector (xossalar inspektori) palitrasi hisoblanadi. Uning yordamida HTML sahifalarida ob'ektlarni formatlash va HTML sahifasidagi ob'ektlarni tahrirlash bo'yicha ko'plab amallar bajariladi. Behaviores (rejimlar) palitrasi – bu moduli ko'chib yuruvchi palitraga misol bo'ladi. Dreamweaver dasturi turli loyiha masalalarini hal qilishga mo'ljallangan unga yaqin shunga o'xshash ob'ektlarga ega.



1-rasm. Dastur oynasining tashqi ko'rinishi

Rasmda ikkita oddiy modulli Layers va History palitralardan iborat bo'lgan terma palitrage misol keltirilgan. Objekts palitrasi tashqi ob'ektlar: rasmlar, jadvallar, qatlamlar freymalar va boshqa ob'ektlarni qo'yish uchun mo'ljallangan. Rasmda ko'rsatilgan boshqa barcha boshqaruv elementlari hujjat oynasining ajralmas tashkil etuvchi qismi hisoblanadi. Texnik tizimlarning ishonchli ishlashi, dasturiy mahsulotlari interfeyslarining qulayligi asosida to'g'ri tashkil qilingan. Dreamweaver paketi formatlash va tahrirlashning deyarli barcha asosiy buyruqlari uchun amalga oshirishning bir necha xil usullarini taklif etadi. Keng formatli ekranlarning omadli egalari ularni palitralar va panellar yordamida bajarishlari mumkin. Bundan mahrum foydalanuvchilarga esa dastur menyu qatori buyruqlarini va klaviatura tugmalari kombinatsiyalaridan foydalaniladi.

Menyu qatori

Menyu qatori – bu Windows ning ixtiyoriy ilovasining zaruriy atributidir. U komandalarga, muloqot oynalariga, tugmalarga yo'l ochadi, ular yordamida hujjat yaratish, dasturni sozlash, vizuallashtirish jarayonini boshqarish kabi samarali ishlar bajariladi. Menyu qatorining har bir bandi vazifasi jihatidan bir-biriga yaqin kiritilgan menyu va kichik menyular ierarxiyasini hosil qiluvchi buyruqlar guruhini birlashtiradi. Bu bandlarning qisqacha tavsifini keltiramiz.

- File menyusi (Fayl) fayllar bilan bog'liq buyruqlarni, gipermatnli hujjatlar shablonlari bilan ishlash, eksport qilish, import qilish va brouzer dasturlarida ko'rish buyruqlarini o'z ichiga oladi.
- Edit (Pravka) menyusiga tahrirlash va qidirish bilan bog'liq buyruqlar kiradi.
- View (Vid) menyusi interfeysning yordamchi elementlarini va gipermatnli hujjat ob'ektlarining ko'rinishlari ustida ishlovchi buyruqlarni o'z ichiga oladi.
- Insert (Vstavka) menyusiga har-xil ob'ektlarni import qilish buyruqlari kiradi: rasmlar, jadvallar, formalar, katlamlar, maxsus belgilar va boshqa ob'ektlarni import qilish.
- Modify (Izmenit) menyusi o'z ichiga gipermatnli hujjat ob'ektlari atributlarini o'zgartirish buyruqlarini oladi.
- Text (Tekst) menyusi o'z ichiga matnli fragmentlarni hosil qilish va ularni formatlash bilan bog'liq buyruqlarni o'z ichiga oladi.
- Commands (Komandy) menyusi gipermatnli hujjatlarni avtomatik qayta ishlash buyruqlarini o'z ichiga oladi.
- Menu qatorining Site (Sayt) bo'limi sayt bilan ishlash vositalari va gipermatnli hujjatlar bilan bog'liq murakkab tizimlar vositalarini o'z ichiga olgan.
- Window (Okno) menyusi dasturga tegishli palitralar, panellar va muloqot oynalarini o'rnatish va olib tashlash bilan bog'liq buyruqlarni o'z ichiga oladi.
- Help (Spravka) menyusida dasturdan foydalanish haqidagi interaktiv ma'lumotlarni chaqirish, elektron qo'llanmani chaqirish kabi buyruqlar joylashgan.

Instrumentlar paneli


Instrumentlar paneli dasturning asosiy dispatcherlik (nozimlik) pulti vazifasini bajaradi (1.5 - rasm). U eng ko'p ishlatiladigan buyruqlar va tahrirlash resurslarini chaqirish tugmalarini birlashtiradi. Bu ixchamgina panel kiritilgan menyu va kichik menyular tizimi navigatsiyasi bilan bog'liq sarf-harajatlarni anchagina qisqartiradi.

Unda joylashgan barcha boshqaruv elementlarini sanab o'tamiz (chapdan o'ngga).

- Code View (Rejim razmetki) - gipermatnli hujjatning faqat belgili kodlari tasvirlanadi. (dizayni tasvirlanmaydi).
- Code and Design View (Rejim razmetki i planirovki). Tugmasi bosilganda hujjat oynasi ikki qismga ajraladi: birinchi oynada belgili kodlar beriladi, ikkinchi oynada esa gipermatnli sahifaning dizayni, ya'ni tashqi ko'rinishi beriladi.
- Design View (Rejim planirovki). Dasturda ishlashning vizual – WYSIWYG rejimiga o'tish tugmasi.
- Title (Zagolovok) – bu matnli maydon hujjatning sarlavhasini kiritishga mo'ljallangan.
- File Management (Upravlenie faylami) – tarmoqda ma'lumot almashish uchun xizmat qiladigan fayllar bilan ishlash buyruqlaridan tarkib topgan menyuni ochish tugmasi.
- Preview/Debug in Browser (Prosmotr/otladka v brouzere) – tugmasi gipermatnli hujjatni ko'rish va undagi Java Script kodlarini tanlangan brouzerda ishlash yoki ishlamasligini tekshiruvchi buyruqlaridan iborat menyuni ochadi.
- Refresh Design View (Obnovit stranitsu) - bu buyruq berilgandan so'ng, hujjatning belgili matnlarida bo'lgan barcha o'zgarishlar loyihalash rejimiga uzatiladi. Ana shu vaqtda kodlarni interpretatsiyasi va sintaksik tekshiruv boshlanadi. Xato fragmentlari sariq rangda ko'rsatiladi. To'g'rilari esa sahifada tasvirlanadi.
- Reference (Spravka) – tugmasi elektron ma'lumotli qo'llanmani ekranga chiqarib beradi. Bu qo'llanmada gipermatnli belgilash tili deskriptorlari ifodalangan.

- Code Navigation (Navigatsiya po kodam) – tugmasi Java Script tilida yozilgan belgili kodlarni tuzatishni boshqaruv buyruqlaridan tarkib topgan menyuni ochadi.
- View Options (Parametry otobrajeniya) – tugmasi hujjat oynasining qo'shimcha elementlari vizualizatsiyasini boshqaruvchi buyruqlar menyusini ochadi. Bu menyuga asosiy menyu qatoridagi View menyusining bir necha buyruqlari kiradi.

Dreamweaver dasturida yaratilgan veb sahifa namunasi



Muhokama uchun savollar

3-

ilova

Dreamweaver dastur oynasi qanday qismlarga bo'linadi?
 .Dreamweaver dasturda hujjat oynasi nima?
 Menyular qatori menyulari va ulardagi buyruqlar vazifalarini sanab bering?
 Instrumentlar panelida qanday instrumentlar bor va ularning vazifalari nimalardan iborat?
 Dasturda qanday ish rejimlari mavjud?

1. B/B/B jadvali

4-ilova

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim
---------	--------------	-------------

--	--	--

M a v z u : PHP dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari. Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish.

MA'RUZA DARSINI OLIB BORISH TEXNOLOGIYASI


Talabalar soni:	50-60 talaba
Vaqt:	2-soat
Dars shakli	Mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi:	1. PHP dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari. 2. Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish
Darsning maqsadi: Talabalarda HTMLda formalar haqida tushuncha hosil qilish.	
<i>Pedagog vazifalari:</i> PHP dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari. Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish haqida tushuncha beradi.	<i>O'quv natijalari:</i> • PHP dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari; • Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish haqida bilib oladi • Mustaqil Web sahifalar yaratadi.
O'qitishning usul, texnikasi:	Ma'ruza, suxbat, baxs-munozara muhokama qilish, mustaqil ta'lim, VENNA diagrammasi
O'qitish vositalari:	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar
O'qitish shakli:	Frontal
O'qitish shart sharoitlari:	Texnik vositalarni qo'llashga mo'ljallangan auditoriya. Proektor
Monitoring va baholash:	Og'zaki so'roq, savol-javob, tahlil natijalari.

PHP dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari.
Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish mavzusidagi
MA'RUZA DARSIGA TEXNOLOGIK KARTA

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Talaba
1-bosqich. Kirish (25 daqiqa)	1.1. Mavzuni e'lon qiladi, ma'ruza rejasi, tayanch so'z va iboralar tanishtiradi. (1-ilova)	Eshitadilar va kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar.
2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1.Mavzu rejalari asosida bayon etiladi (2-ilova) Jarayon komp'yuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi.)	Eshitadilar va yozib oladilar
3-bosqich Yakuniy. (10 daqiqa)	3.1. Talabalarga savollar bilan murojat etadi Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni aytib o'tadi (3-ilova) 3.2. Talabalarning dars davomidagi faoliyatini tahlil etadi va baholaydi VENNA diagrammasi. (4-ilova)	Savollarga javob beradilar Mustaqil ishlashlarni bajaradi

MAVZU: PHP dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari.
Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish.

1-ilova



REJA:

1. PHP dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari.
2. Master va shablonlar bilan ishlash va web-sahifa yaratish

Tayanch so'z va iboralar

PHP, o'zgaruvchilar, tiplar, qiymatlar, funksiyalar

RNR — tili Internetda ishlash uchun mo'ljallangan bo'lib, C tili kabi universal va aniq sintaksisga ega va o'zida Perl va C tili imkoniyatlarini mujassamlashtirib olgan. Bu til yaqinda paydo bo'lgan bo'lsada (aniqrog'i uni interpretatori) u millionlagan serverlarga o'rnatilgan va o'rnatilishida davom etmoqda.

PHP tilini Perl ga nisbatan bitta jiddiy kamchiligi bor: bu — uning katta va murakkab stsensariylar bilan sekin ishlashidir. Biroq bu kamchilikni PHP ni yaratuvchilar bartaraf qilish niyatida ekanligini bildirishgan.

PHP interpretatorini quyidagi ustunliklari mavjud.

- Dasturni bajarish paytida xatoni aniqlash soddalashadi. Agar dastur bajarilishida uzilish bo'lsa interpretator bu xaqda xabar qiladi.
- Egallangan xotirani bo'shatish xaqida uylmasa xam bo'ladi. Interpretatorni o'zi dasturdagi u yoki bu o'zgaruvchi kerak yoki kerakmasligini aniqlaydi va o'zgaruvchi uchun ajratilgan xotirani bo'shatadi.
- O'zgaruvchi tiplari xaqida o'ylamasam xam bo'ladi.

PHP – dasturga misol

An'anaviy ravishda dasturlash xaqidagi barcha kitoblar "Hello world!" dasturidan boshlanadi. Traditsionno, lyubaya kniga nachinaetsya s programmy "Hello world!".

```
<?
```

```
echo "Hello world!"
```

```
?>
```

Stsenariyni brauzerda ishga tushiring. Uni ishlayotganligiga guvox bo'lasiz. Ma'lumotlarning tiplari o'zgaruvchilar va ifodalar

Ko'rinib turganidek PHP – dasturni strukturasi SI va Beysik aralashmasini eslatadi va HTML tarkibiga xam kiritiladi. Biroq biz yuqorida PHP tilidagi oddiy dastur misolini ko'rib chiqdik. Bu til xaqidagi umumiy tassavvurni bermaydi.

PHP tilidagi ma'lumotlar tiplari bilan tanishib chiqamiz.

O'zgaruvchi tiplari

RNR tili o'zgaruvchilarni 5 ta tipini qo'llab – quvvatlaydi. Ularni qisqacha tariflaymiz.

integer

Ishorali butun son. Uzunligi 32 bit (2 147 483 648 dan 2 147 483 647 gacha)

double

Etarlicha katta aniqlikdagi xaqiqiy son (matematik xisob – kitoblar uchun etarli aniqlikda)

string

Ixtiyoriy uzunlikdagi satr. Si tilidagidan farqli ravishda satr tarkibida nulevoy simvollar xam qatnashadi va bu dastur ishiga ta'sir qilmaydi. Boshqacha aytganda, satrlardan binar ma'lumotlarni saqlash uchun foydalanish mumkin. Bunda satr uzunligi bo'sh operativ xotira xajmi bilan chegaralanadi. SHuning uchun bitta satrga xajmi katta bo'lgan, 200 – 300 kilobayt fayldagi ma'lumotni o'zlashtirish mumkin. Satrlar standart funktsiyalar yordamida qayta ishlanishi mumkin va satrdagi ixtiyoriy simvolga murojaat etish mumkin.

array

Assotsiativ massiv (yoki ko'pincha, PHP da bunday atash unchalik tsh-ri bshlmasada xesh deb ataladi). Bu bir nechta elementlar to'plami bo'lib, ularni xar biri kalit => qiymat shaklidagi juftlikdan iborat (=> simvoli bilan ma'lum kalitga biror qiymatni moligi belgilangan). Ma'lum elementga kaliti ko'rsatilib murojat etiladi. Si tilidagi massivlardan farqli ravishda faqat 0 dan boshlanuvchi butun sonlar emas, balki ixtiyoriy satr qo'llanilishi mumkin. Masalan, quyidagi komandalar ishlatilishi mumkin:

```
// "O", "a", "" va "s" kalitli massivni yaratish;  
$a=array(0=>"zzzz", "a"=>"aaa", "b"=>"bbb", "c"=>"ccc");  
echo $a["b"]; // "bbb" chatrni chiqaradi;  
$a["l"]="qq"; // massivni yangi elementini yaratadi va unga "qq" qiymatni o'zlashtiradi;  
$a["a"]="new_aaa"; // mavjud elementga "new_aaa" ni o'zlashtiradi;
```

Array() operatori elementlari qavs ichida ko'rsatilgan xolda massiv yaratadi.

object

Ob'ekt tipi ob'ektga – orientirlangan dasturlashni eng oddiy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Ob'ektni ichki strukturasi xesh ga o'xshash. Faqat bunda aloxida element va funktsiyaga murojat etish uchun kvadrat qavslar emas, balki -> operatori ishlatiladi. Ob'ektlar to'g'risida keyinchalik batafsil ma'lumotlar keltiriladi.

Mantiqiy o'zgaruvchilar

PHP da yana o'zgaruvchilarni gipotetik tipi — mantiqiy tipi mavjud. Mantiqiy o'zgaruvchi ikkita: false (yolg'on) yoki true (rost) qiymatdan biriga ega bo'ladi. Nolga teng bo'lmagan ixtiyoriy son (va bo'sh bo'lmagan satr), xamda true xizmatchi so'zi rost qiymatni bildiradi. 0 soni, bo'sh satr va false so'zi yolg'on qiymatni bildiradi. SHunday qilib, ixtiyoriy nolga teng bo'lmagan qiymat (xususan, o'zgaruvchilarni qiymati xam) mantiqiy kontekstda (ifodada) rost qiymat sifatida qaraladi. Dasturda qiymatni ko'rsatish uchun false va true so'zlaridan xam foydalanish mumkin.

false va true kalit so'zlari — oddiy konstantalar (o'zgarmaslar) emas. YUqorida aytilganidek, false bo'sh satrni sinonimi, true esa — birni sinonimi xisoblanadi. Bunga quyidagi keltirilgan operatorlar bajarib ishonch xosil qilishingiz mumkin:

```
echo false; // bo'sh satrni chiqaradi, ya'ni xech nima chiqarmaydi  
echo true; // 1 sonini chiqaradi
```

Keling endi quyidagi dasturni ko'rib chiqamiz (1)..

Mantiqiy kattaliklar

```
<?  
$a=100;  
if ($a==100) echo "uzgaruvchi 1 ga teng!<br>"  
if ($a==true) echo "uzgaruvchi rost!<br>"  
?>
```

Agar true faqat 1 ga teng bo'lsa, u xolda faqat birinchi satr chiqqan bo'lardi. Biroq ikkala satr xam brauzerda chiqadi. Solishtirish operatorlarida (masalan, == solishtirish operatorida, xamda >, < operatorida va x.k.) agar ikkala operand xam mantiqiy bo'lsa RNR operandlardan

biriga mantiqiy operand sifatida qaraydi. Navbatdagi misolda (listing 7.2) PHP xar bir o'zgaruvchi uchun mantiqiy ekanligini bildiruvchi belgi saqlashini ko'rsatadi..

Mantiqiy o'zgaruvchilar <?

```
$a=100;  
$b=true;  
echo "a = $a<br>";  
echo "b = $b<br>";  
if($a==$b) echo 'a bga "teng" ! ' ;  
?>
```

Qiziq, dastur avval "*a=100* va *b=1*" yozuvlarini chiqaradi, keyingi satrda esa a bga "teng" ! yozuvini chiqaradi. Bu dastur natijasi xuddi shunday bo'lishi endi bizga ma'lum (chunki o'zgaruvchilar mantiqiy o'zgaruvchilar sifatida qaraladi). SHuning uchun \$a o'rnida, masalan, funktsiya natijasi bo'lgan son ishlatilgan extiyot bo'ling. Aks xolda bu izlab topish uchun bir necha soat vaqtni oladigan xatolikni keltirib chiqaradi.

Albatta arifmetik amallarni bajarishda u mantiqiy o'zgaruvchidan odatdagi, sonli o'zgaruvchiga aylanadi. Mantiqiy o'zgaruvchilarni qiymatini bittaga oshirish yoki kamaytirish uchun ++ yoki – operatorlaridan foydalanish befoyda(3):

++ va — operatorlarini xususiyatlari <?

```
$b=true;  
echo "b: $b<br>";  
$b++;  
echo "b: $b<br>";  
?>
```

Bu dastur ikkala chiqarishda xam 1 qiymatni chiqaradi. Bu dastur siz yo'l qo'yishingiz mumkin bo'lgan xatolikni oldini olish uchun keltirilgan.

O'zgaruvchilar ustida amallar bajarish

O'zgaruvchi tipi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'zgaruvchi ustida 3 ta asosiy amalni bajarish mumkin.

Qiymat o'zlashtirish (yoki berish)

O'zgaruvchiga boshqa bir o'zgaruvchini qiymatini (yoki funktsiya natijasini), boshqa o'zgaruvchiga ssilka, yoki konstanta ifodani o'zlashtirish mumkin (ob'ekt tiplidan tashqari). YUqorida aytilganidek, tiplarni o'zgartirishni interpretator o'z zimmasiga oladi. Bundan tashqari o'zlashtirganda o'zgaruvchini eski qiymati, eng asosiysi o'zgaruvchini eski tipi yo'qatiladi va "qiymat beruvchini" nusxasi bo'lib qoladi. YA'ni, agar biz massivga son o'zlashtirsak, u xolda butun massiv yo'qatiladi.

Mavjudligini tekshirish

Biror o'zgaruvchi bor yoki yo'qligini tekshirish mumkin. Bu IsSet() operatori yordamida tekshiriladi. Masalan:

```
if (IsSet ($MyVar))  
echo "<Bunday o'zgaruvchi mavjud. Uning qiymati $MyVar";
```

Agar joriy vaqtda o'zgaruvchi yo'q bo'lsa (ya'ni unga qiymat o'zlashtirilmagan yoki oldinroq unset() operatori yordamida o'chirilgan bo'lsa), u xolda IsSet () operatori natijasi yolg'on, aks xolda rost qiymatli bo'ladi.

Dasturda initsializatsiya etidmagan o'zgaruvchidan foydalanish mumkin emas, aks xolda xatolik kelib chiqadi (stsenariyda mantiqiy xatolik xaqida xabar xosil bo'ladi). Albatta, zarur o'zgaruvchini bo'sh satrga tenglab yaratish mumkin. Biroq bu usuldan foydalanishni maslaxat etmayman. Buning o'rniga o'zgaruvchini ishlatishdan oldin mavjudligini tekshrish maqsadga muvofiq. Bunda xattolik xabarlarini chiqarishni @ operatori yordamida bekor qilish mumkin.

Yo'q qilish

O'zgaruvchini yo'q qilish Unset() operatori yordamida amalga oshiriladi. Buning natijasida o'zgaruvchi ichki tablitsadan o'chiriladi, ya'ni dastur yo'q qilingan o'zgaruvchi yaratilmagan deb xisoblaydi. Masalan:

```
// $a o'zgaruvchisi mavjud emas
$a="Hello there!";
//Endi $a o'zgaruvchi yaratildi
// ... $a dan foydalanuvchi qandaydir operatorlar
echo $a;
// endi $a o'zgaruvchini o'chiramiz
Unset ($a) ;
// Endi $a o'zgaruvchisi yo'q
echo $a; // Xatolik: $a o'zgaruvchisi yo'q
```

Ko'rsatgich tipli o'zgaruvchilar

RNR tilida ko'rsatgich tushunchasi yo'q bo'lsada boshqa o'zgaruvchilarga ko'rsatgich yaratish mumkin. Ko'rsatgichni 2 ta turi bor: qat'iy va simvolik. Qat'my ko'rsatgichlar RNR 4 da paydo bo'ldi. (3 versiyasida faqat simvolli ko'rsatgichlar mavjud edi.

Qat'iy ko'rsatgichlar

Qat'iy ko'rsatgich oddiy o'zgaruvchi bo'lib, boshqa o'zgaruvchini sinonimi xisoblanadi. Ko'p darajali ko'rsatgichlar qo'llab quvvatlanmaydi. SHuning uchun qat'iy ko'rsatgichlarga oddiy sinonim sifatidagina qarash mumkin. Qat'iy ko'rsatgich yaratish uchun & (ampersand) operatoridan foydalaniladi. Masalan:

```
$a=10;
$b = &$a; // endi $b — o'zgaruvchisi $a bilan bir xil
$b=0; //aslida $a=0
echo "b=$b, a=$a"; // "b=0, a=0" yozuvini chiqaradi
```

Faqat o'zgaruvchini emas, shuningdek massiv elementini xam ko'rsatish mumkin (bu bilan qat'iy ko'rsatgich simvolli ko'rsatgichdan ajralib turadi). Masalan:

```
$A=array('a'=>'aaa', 'b'=>'bbb');
$b=&$A['b'];//endi $b — massivni'b'indeksli elementi bilan bir xil
$b=0; //aslida $A['b']=0;
echo $A['b'] //ekranda 0 chiqadi
```

Xususan, navbatdagi misoldagi kabi yaratilayotgan simvolik ko'rsatgich ko'rsatuvchi massiv elementi mavjud bo'lmisligi xam mumkin:

```
$A=array('a' => 'aaa', 'b' => 'bbb');  
$b=&$A['s']; //endi $b — massivni 'c' indeksli elementi bilan bir xil  
echo "'s' indeksli element:('$A['s'].')";
```

Ushbu dastur bajarilishi natijasida \$b ko'rsatgichiga qiymat o'zlashtirilmagan bo'lsada, \$A massivida 'c' kalitli element yaratiladi va uni qiymati bo'sh satrga teng bo'ladi (buni echo operatori ishi natijasidan bilib olish mumkin). YA'ni qat'iy ko'rsatgich mavjud bo'lmagan ob'ektni ko'rsatishi mumkin emas va agar bunga xarakat qilinsa ko'rsatiluvchi ob'ekt yaratiladi.

Qat'iy ko'rsatgich – u ko'rsatayotgan ob'ektni absolyut aniq sinonimi emas. Chunki qat'iy ko'rsatgichlarga nisbatan qo'llaniladigan unset() operatori ko'rsatilayotgan ob'ektni o'chirmaydi, balki ko'rsatgich va ob'ekt o'rtasidagi bog'liqlikni bekor qiladi.

Demak, qat'iy ko'rsatgichlar va ko'rsatilayotgan o'zgaruvchilar (ob'ektlar) umuman olganda bir xil imkonga ega, biroq ulardan birini qiymati o'zgartirilsa bu ikkinchida xam o'z aksini topadi. Unset () operatori ob'ekt va ko'rsatgich orasidagi aloqani uzadi.

Qat'iy ko'rsatgichlardan funktsiyalarga parametrlarni berishda va funktsiya qaytaradigan qiymatni o'zlashtirishda foydalanish maqsadga muvofiq. Bu qanday amalga oshirilishini PHP da funktsiyalar yaratishni o'rganishda ko'rib chiqamiz.

Simvolik ko'rsatgichlar

Simvolik ko'rsatgich — bu boshqa bir o'zgaruvchini nomini saqlovchi satrli o'zgaruvchidir. Simvolik ko'rsatgich ko'rsatayotgan o'zgaruvchi qiymatini ko'rish uchun qayta nomlash operatoridan (ko'rsatgich nomi oldida qo'shimcha ravishda \$ belgisi ko'rsatiladi) foydalanish zarur. Buni misolda ko'rib chiqamiz:

```
$a=10;  
$b=20;  
$s=30;  
$r="a"; //yoki $r="b" yoki $r="s" ($r ga boshqa o'zgaruvchi nomi o'zlashtiriladi)  
echo $$p; // $r ko'rsatayotgan o'zgaruvchi qiymati, $a qiymati chiqariladi  
